

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA**

**MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**B.NAZAROV, A.RASULOV, Q.QAHRAMONOV**

# **O'ZBEK ADABIY TANQIDI TARIXI**

**(elektron o'quv qo'llanma)**

**TOSHKENT - 2009**

Mas'ul muharrir:     Hamidulla Boltaboev, filologiya  
fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:         Qozoqboy Yo'ldoshev, pedagogika fanlari  
doktori, professor;

Marg'uba Mirqosimova, pedagogika  
fanlari doktori, professor.

## 1.-Mavzu: **Kirish. Adabiy tanqid tarixining fan sifatida o'rganilishi.**

Reja.

1. Adabiy tanqid - adabiyotshunoslikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida.
2. Adabiy tanqidning spetsifik xususiyatlari.
3. Adabiy tanqid ilmiy-badiiy ijod namunasi sifatida.
4. Adabiy tanqidning janr xususiyatlari
5. Adabiy tanqidning boshk:a fanlar bilan aloqasi.

Tayanch so'zlar: tanqid, adabiyot, adabiyotshunoslik, tanqid metodologiyasi, metodologik asoslar, estetika, falsafa, matematika, tilshunoslik, psixologiya, meditsina, germeneytika, senergetika, ontologiya, aksiologiya, tahlil, talqin, sharx, adabiy tanqidning maqsad va vazifalari, adabiy tanqidning ilmiy-nazariy, badiiy-estetik, ijtimoiy-tarixiy va mafkuraviy asoslari, maqola, esse, ochiq xat, taqriz, adabiy maktublar, adabiy suhbat.

Ma'lumki, adabiyotshunoslik fani filologiyaning mustaqil, muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Uning tadqiq ob'ekti eng avvalo badiiy asardir. Adabiyotshunoslik adabiyotni tadqiq etish xususiyatiga ko'ra bir-biri bilan bog'liq bo'lgan, ayni chog'da farqlanib turuvchi uchta muhim tarkibiy qismdan tashkil topadi. Bular quyidagilardir: Adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid.

Badiiy so'zning ilk manbalaridan tortib turli yozuvlarda bitilgan adabiy, badiiy matnlarni, qo'lyozmalarni o'rganish adabiyot tarixining asosiy vazifasidir. Shunga ko'ra, adabiyotshunoslik eng avvalo adabiyot tarixi bosib o'tgan murakkab yo'lni, nazariy qarash va xulosalarning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini ilmiylik va tarixiylik tamoyillari asosida sinchiklab o'rganadi. Binobarin, adabiyot tarixi adabiyotshunoslikning muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Adabiyotshunoslikning yana bir muhim tarkibiy qismi adabiyot nazariyasidir. Adabiyot nazariyasi badiiy asar poetikasiga oid barcha muammolarni ilmiy-nazariy asosda o'rganadi. Adabiyotning umumiy taraqqiyot qonuniyatlari, tur va janrlar tasnifi, obrazlar sistemasi, badiiy asar tuzilishi, badiiy til imkoniyatlari, metod va uslub kabi muammolar ham adabiyot nazariyasi doirasida o'rganiladi.

Shuningdek, badiiylilik printsiplari va tamoyillari, obrazlilik, estetik ta'sirchanlik, go'zallik va fojiaivilik printsiplarini o'rganish ham nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotshunoslik metodlar, adabiy ta'sirlar, milliy adabiyotlar aro aloqalar tarixi hamdir. Uning uch tarkibiy qismi-adabiyot tarixi, nazariyasi va adabiy tanqidaro o'zaro murakkab aloqa, bog'liqliklar mavjud.

Ta'kidlash zarurki, uch tarkibiy qismni hech qachon "sof" holda, birini ikkinchisi bilan bog'lamagan holda o'rganish mumkin emas. Folklorshunoslik adabiyotshunoslik bilan uzviy bog'lanib ketadi.

Matnshunoslik, manbashunoslik, bibliografiya ham adabiyotshunoslikning qo'shimcha qismlar, uzvlaridir.

Adabiy tanqid – adabiyotshunoslikning va muayyan ma'noda badiiy ijodning ham tarkibiy qismi. U adabiy jarayon "qozonida qaynaydi": ham adabiyotshunoslik uchun material yig'adi, ham badiiy ijod qonuniyatlarini yaratilayotgan konkret asarlar asosida ilmiy-badiiy tahlil etadi. Adabiy tanqid mantiqiy xulosalar chiqarishga qaramay, sub'ektiv qarashlar yo'lidan boradi, betakror uslubdagi tanqidchilarni etishtiradi. Boshqacha aytganda, adabiy tanqidning o'zigagina xosligi fan va san'atni uyg'unlashtirishida ko'rinadi. Uning estetika, badiiy ijod bilan uzviy bog'liqligi betakror ijod turi ekanligini tasdiqlasa, falsafa, lingvistika, mantiq, matematika singari fanlar bilan bog'liqligi fan sifatidagi ildizini, samara sifatidagi natijalarini mustahkamlaydi.

Binobarin, ilmiy bilishga xos bo'lgan barcha xususiyatlar unga ham begona emas. Adabiy tanqid o'z spetsifik xususiyatlaridan kelib chiqib falsafa, tarix, estetika, mantiq, tilshunoslik, ruhshunoslik, matematika va boshqa ko'plab fanlar bilan izchil bog'langan. Adabiy tanqidning bu sohalar bilan aloqasi umumiylik va xususiylik kategoriyalarining dialektik birligi doirasidagi bog'lanishdadir. Lekin adabiy tanqid o'ziga xos ilm. U garchi adabiyotshunoslikning boshqa sohalar bilan qator mushtarakliklarga ega bo'lib, tadqiq ob'ekti bir bo'lsa-da, bir qator jihatlari bilan ulardan farqlanib turadi. Uning o'ziga xos jihati, eng avvalo, adabiy jarayonda yangilanayotgan ilmiy kontseptsialarni tezkorlik bilan aniqlash va ilmiy muammo

sifatida qo'ya bilish, mazkur ilmiy muammolarning asosiy yo'nalishlari, taraqqiyot tamoyillarini belgilab berishda namoyon bo'ladi. Mazkur muammolarning echimi esa boshqa tadqiqotlarni taqozo qiladi. Shu jihati bilan adabiy tanqid boshqa tarkibiy qismlar, jumladan monografik tadqiqotlar va ilmiy-nazariy izlanishlar uchun xamirturush vazifasini o'taydi.

Adabiy jarayon faqat hozirda yaratilayotgan badiiy asarlar majmuidan iborat hodisa emas. Adabiy jarayon deganda, tinimsiz izlanish va harakatda bo'lgan yaxlit bir butun faoliyat, o'zida insoniyat tomonidan yaratilgan boqiy durdonalar, jamiki nazariy qarashlarni mujassamlashtirgan badiiy, ilmiy-ijodiy jarayon nazarda tutiladi.

Bilamizki, ilmiy bilish ijod asosida amalga oshiriladi. Muammoga ijodiy munosabat bo'lmasa fanda kashfiyotlar bo'lmaydi. Ilmiy bilish metodologiyasida ijod ikkiga – ilmiy ijod va badiiy ijodga ajratiladi<sup>1</sup>

Ilmiy ijodda ilmiy tafakkur etakchilik qiladi. Aniq fanlarda, shuningdek, ijtimoiy soha fanlarida, jumladan, adabiyotshunoslikning adabiy tanqiddan boshqa sohalarida ham ilmiy g'oyalarni ifodalashda aniqlik va qisqalikka intilish, nazariy umumlashmalar chiqarish – bular barchasi mutaxassislariga tushunarli ilmiy til va atamalar orqali ifodalanadi.

Badiiy ijodda hissiy bilish etakchilik qiladi. Obrazlilik – uning asosiy xususiyati. Ifoda usulida esa badiiy til imkoniyatlari, turli badiiy tasvir vositalari, poetik ko'chimlar obrazlilikni ta'minlovchi asosiy unsurlardir.

Adabiy tanqidning muhim o'ziga xos jihati uning ilmiy ijod bilan badiiy ijodga birdek daxldor ekanligidadir. Bir so'z bilan aytganda, adabiy tanqid ilmiy tafakkurning obrazli shaklidir.

Bugungi kun tanqidchiligida talqin nazariyasi-germenevtika, baholash nazariyasi-aksiologiyaning amaliyotda qo'llanila boshlashi badiiy ijodni o'rganish muammolarining yangidan-yangi qirralariga e'tiborni kuchaytirdi. Hermenevtika G'arb va Sharq estetikasi aro uzilishni emas, aksincha azaliy bog'liqlikni tasdiqlaydi.

Zero, har bir yangi narsa birmuncha unutilgan eskilikdir, degan hikmat hermenevtika qadrining namoyon bo'lishida yana bir bor tasdiqini topadi. Izoh,

---

<sup>1</sup> =аранг Туленов.Ж. Диалектика назарияси. Тошкент, 2001 ,180бет.

sharh, talqin, tafsir, ta'vil singari matn va muammoni chuqurlashtirib, kengaytirib idrok etish va baholash Sharq adabiy- tanqidiy tafakkurida azaldan mavjud edi. Endi ular g'arb va ovrupo tanqidchiligida yangi zamonning yangi sifat belgilari bilan yanada to'yinib, boyib, adabiy jarayon, badiiy asarlarga munosabatda, ularni baholashda yangi- yangi talablarni o'rta qo'ymoqda.

Tanqidchi va tanqidchilik ma'nolari sharq mumtoz adabiyotida zurafo, urafo, dabir singari atamalar bilan nomlanib kelganining o'ziyoq germeneytika va aksiologiyaning qator qirralari hamda maqsadlari nozikta salaflarimizga ma'lum bo'lganini ko'rsatadi.

Badiiy asarga biografik, genetik, ontologik, tarixiy- funktsional yondashuvlar qadriyat qimmatni yoxud badiiy asarlarning uzoq yashovchanligi sir-sinoatlarni ochib berdi. Ayrim asarlarning davrlar, zamonlar sinovidan o'ta olmasligi sababini ko'rsatdi.

Adabiy tanqid metodologiyasi muammolari Aristotel, Platon, Farobiy, ibn Sino, Beruniy, imom G'azzoliy, az-Zamaxshariy, Kant, Gegel, Freyd, Xaydegger asarlarida teran ishlangani ma'lum.

Adabiy tanqid badiiy asarni shunchaki tahlil etish, baholash emas, uni retseptiv (qabul qilish) estetika nuqtai nazaridan his etib, fikr yuritishni, badiiy ijodni bir emas -turlicha-realizm, strukturalizm, ekzistentsializm singari metodlarni qo'llagan holda keng yoritishni talab qilmoqda. Realistik, modern, absurd yo'nalishida yaratilayotgan asarlar zamini yuqorida sanalgan metodlarga begona emasligi ayon bo'lmoqda.

Ushbu qo'llanma o'zbek tanqidchiligi yaqin yuz yil ichida bosib o'tgan yo'lni bakalavr talabalar extiyojini nazarda tutgan holda ilmiy-nazariy yoritishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Qo'llanmada yangi o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi taraqqiyot tamoyillari asosan to'rt muhim davrga bo'lib o'rganiladi va har bir davrni o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni ilmiy-nazariy tahlil etuvchi umumlashma kuzatishlar beriladi.

Ma'lumki, shu vaqtgacha badiiy adabiyot va u bilan bog'liq muammolar haqida fikr yuritilganda, bizda, ayniqsa, darslik va qo'llanmalarda asar haqidagina va qisman yozuvchi hayoti haqida fikr yuritish bilan cheklanildi. Adabiy-tanqidiy asarlar, fikrlarga munosabat bildirilsada, tanqidchi hayoti, ijod yo'li haqida gapirish e'tibordan chetda qolib keldi.

Ushbu qo'llanmada tanqidchi asarlarini keng va atroflicha tahlil etish, taraqqiyot tamoyillarining etakchi xususiyatlarini ko'rsatishdan tashqari, shularni shakllantirgan munaqqidlarning hayoti va ijod yo'li haqida ham muxtasargina tahliliy ma'lumot berish ma'qul topildi.

Shu ma'noda qo'llanmaga turli davrlarning eng etakchi o'zbek munaqqidlari portretlari kiritildi.

Davrlashtirish masalasiga har bir davrning adabiy tanqiddagi o'ziga xos etakchi xususiyatlarini ilmiy yoritish asos qilib olinganidek, munaqqidlar siymosining tanlanishi, yoritilishi, ular ijodining tahlil etilishiga ham ularning hozirgi o'zbek adabiyoti va tanqidchiligi ravnaqi hamda tamoyillarining qaror topishidagi xizmatlarining ilmiy nazariy ahamiyati asos qilib olindi.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. A.Rasulov. "Tanqid, tahlil, baholash." -T.: "Fan" 2006 yil
2. B. Karimov. "Abdulla Qodiriy" –T.: "Fan" 2006 yil
3. Sharafiddinov O. "Ijodni anglash baxti" -T.: "Shark:" 2004 yil
4. Safarov O., Yuldoshev B, Ahmedova Sh. "Uzbek adabiy tanqidchiligi tarixi" Bux DU 2003 yil
5. Rahmonov B. "O'zbek adabiy tanqidchiligi" -T.: "Yangi asr avlodi" 2004 yil
6. A.Rasulov. "Ilmi g'aribani qo'msab" -T: 2002 yil

## **2-mavzu. Mumtoz davr tanqidchiligidagi etakchi tamoyillar.**

Reja.

1. Adabiy tanqidning fol'klor namunalarida o'ziga xos namoyon bo'lishi.

2. Forobiy, Ibn Sino, Qays Roziy kabi mutafakkirlar ijodida ilmiy-nazariy qarashlar.

3. A.Navoiyning "Majolis un-nafois" asaridagi ilmiy-estetik qarashlar.

4. "Ilmi nahada", "Ilmi Fariba" kabi ko'plab talqin namunalari haqida ma'lumot.

Tayanch so'zlar: mumtoz adabiyot, ilmi nahada, ilmi Fariba, zurafo, urafo, dabir, tazkira, mushoira, suhbat.

Adabiy tanqid adabiyotning o'zi kabi qadimiydir. Adabiyot paydo bo'libdiki, uning tahlilchisi, baholovchisi bo'lgan adabiy tanqidiy qarashlar ham mavjud. Bu tipdagi adabiy tanqidiy tafakkur xalq og'zaki ijodi namunalaridayoq o'z borlig'ini namoyon qilgan.

Turli adabiy suhbatlar, qissaxonlik davrlarida, og'zaki tarzda ham badiiy asar talqiniga katta e'tibor qaratilgan. Badiiy asar poetikasi yohud mazmuniga oid turli-tuman og'zaki sharhlar ham adabiy tanqid rivojiga munosib hissa qo'shdi.

Mumtoz adabiyot namunalarida adabiy-tanqid va estetik qarashlar ko'p hollarda badiiy asar tarkibida maxsus bob yoki boshqa shaklda o'z ifodasini topgan.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" (XI asr), A.Yugnakiyning "Hibbatul Haqoyiq" (XIII asr), A.Navoiyning "Xamsa" asarlarida badiiy so'z bilan bog'liq bo'lgan ko'plab adabiy-estetik qarashlar bayon etilganligini kuzatish mumkin.

Jumladan, Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonining IV bo'limida qalam vasfi haqida fikr yuritib, uning ijod jarayonida tutgan o'rnini faxr bilan tasvir etadi. Bu vasf faqat qalamga tegishli bo'lmay, u orqali shoir ijod jarayoni va uning poetik qudrati haqida o'zining adabiy-estetik qarashlarini ilgari surayotganligini ko'rishimiz mumkin.

A.Navoiy qalam vositasida yuz ochayotgan ijod jarayonini chopqir otga, xushovoz qushga, yuzlab ma'nolar jo bo'lgan, xazinaga, duru javohir, bulbulga, xullas inson vujudini junbushga keltiruvchi ishq axbobiga duchor qiluvchi buyuk kuchga qiyoslaydi. Abdurahmon Jomiyga bag'ishlangan faslda esa shoir dilini ma'no dengizining eng chuqur joyiga, she'riyatini esa ushbu dengizdagi ulkan gavharga



qiyoslab, uning har bir so'zida yanada yuksak ma'no dengizi namoyon deb ta'rif beradi.

Sayfi Saroyining "Jahon shoirlari, ey gulshani bog'" deb nomlanuvchi masnaviysida ham she'r yaratish mashaqqatlari, qonun-qoidalari haqidagi ta'rif aslsida muayyan adabiy estetik qarashlar ilgari suriladi.

Z.M.Boburning "Boburnoma" asaridagi Alisher Navoiy ijodini xarakterlovchi "Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til bila to she'r aytibturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytg'on ermas" kabi fikrlari qisqa talqin orqali shoir ijodining butun mohiyatini ("ko'p va xo'p") joylay olishi bilan xarakterlidir.

Albatta, badiiy asar tarkibida keluvchi bu kabi fikrlar adabiy-tanqid namunasi bo'lolmaydi, biroq ijodkorning adabiy estetik qarashlarini ifodalovchi vosita sifatida baholanishga loyiq kuzatishlardir. Ayni chog'da bu kabi namunalar o'sha davr adabiy-estetik hayoti haqida muayyan tasavvur hosil qiladi.

Shuningdek, mumtoz adabiyotimizda ko'p uchraydigan devonlarning debochalarida ham asarning yaratilishi, janri, nomlanishi sharhi, poetik xususiyatlari haqidagi qarashlar ifolanganki, bu ham mumtoz adabiy estetik qarashlarning o'ziga xos namunalaridandir. Ijodkorlarning o'z ustozlariga bo'lgan ehtiromlarini ifodalovchi faxriyalarda ham muayyan adabiy-estetik qarashlar ifodalanadi. Muayyan davr adabiy muhiti, ijodkorlar hayoti va ijodi haqidagi qarashlarni ifodalovchi risolalar ham mumtoz adabiy tanqidchiligining o'ziga xos namunasi deyish mumkin. Shu jihatdan Husayn Bayqoraning "Risolai Husayn Boyqaro" asari xarakterlidir. Risolada XV asrning ikkinchi yarmidagi adabiy muhit, shuningdek davrning zabardast ijodkorlari bo'lmish Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy hayoti ijodiga oid qimmatli qarashlar o'z ifodasini topgan.

Mumtoz adabiyotshunosligimizda adabiy tanqidning o'ziga xos namunalaridan biri tazkiradir. Tazkira muayyan bir davrga xos adabiy muhit va shu muhitda yashab ijod etgan mashhur ijodkorlar hayoti va ijodi haqida ma'lumot beruvchi asardir. Tazkiralarni ijodkorlar hayoti va ijodi haqida ma'lumot beruvchi o'ziga xos antologiya desa ham bo'ladi.

Mumtoz adabiyotda tazkira yozish tarixi qadimiy bo'lsa-da, uning yuksak namunalari XV asrda yaratildi. Shu jihatdan Davlatshoh Samarqandiyning forsoj tojik tilida yaratilgan "Tazkirat ush-shuaro", Alisher Navoiyning turkiy tilda bitilgan "Majolis un-nafois" tazkiralari xarakterlidir. Alisher Navoiy o'z tazkirasida XV asrda yashab ijod etgan 450 dan ziyod ijodkorlar hayoti va ijodi haqida ma'lumot beradi. A.Navoiy o'z tazkirasida ijodkorlar hayoti va ijodi haqida faqat ma'lumot berib qolmay, balki ular ijodining poetik qimmatini yoki badiiy zaif qirralarini tahlillar bilan asoslab beradi.

Umuman Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir, ayni chog'da etuk adabiyotshunos olim va munaqqid sifatida "Majolis un-nafois" dan tashqari "Xamsatul-mutaqayyirin", "Muhokamatul – lug'atayn", "Nasoimul muhabbat" kabi asarlarida o'z adabiy-estetik qarashlarini zamonasining etuk shoirlari Jomiy, Lutfiy, Husayniy kabi ko'plab ijodkorlar ijodi tahlili asosida ifodalangan.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

- 1.Valixojjaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. –T.: O'zbekiston, 1993.
- 2.Qudratullaev H. Navoiyning adabiy estetik olami, -T.: G'.G'ulom nomli NMB, 1991.
- 3.Bobojev T. O'zbek adabiy tanqidi tarixi (ma'ruzalar matni), -T.: 2001.
- 4.Rasulov A. Ilmi g'aribani qo'msab. –T.: 2002.

### **3-mavzu. XX asr tanqidchiligining taraqqiyot tamoyillari.**

Reja.

1. Yangi tipdagi adabiy tanqid vujudga kelishi va matbuot.
2. Adabiy tanqid davrlashtirish printsiplari.
3. Adabiy tanqidda shaxsga sig'inish va siyosiy – mafkuraviy qarashlar.
4. Adabiy tanqidda badiiy mahorat muammolari.
5. Istiqloq davri tanqidchiligidagi etakchi tamoyillar.

Tayanch so'zlar: "harakatdagi" estetika, professional tanqid, shaxsga sig'inish, mafkuralashish, davrlashtirish, badiiy mahorat, baholash, vulgar

sotsiologik, nigilistik, konfliktsizlik, metod, uslub, uslubiy o'ziga xoslik, konflikt, xarakter, syujet, kompozitsiya, tanqid, tahlil, etakchi tamoyillar, baxs-munozara, ochiq xat, suhbat, yangicha tafakkur tamoyillari, modernistik qarashlar.

Yangi o'zbek tanqidchiligi mumtoz o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligining uzviy davomi sifatida maydonga keldi. Uning vujudga kelishida ko'plab omillar rol o'ynadi. Bu omillarni shartli ravishda ikkiga- tashqi va ichki omillarga ajratish mumkin. Odatda yangi tipdagi adabiy tanqid tarixini o'rganuvchi manbalarda ko'proq tashqi omilga e'tibor qaratilganligini kuzatish mumkin.

Jumladan, O.Safarov, B. Yo'ldoshev, Sh.Ahmedovalar qalamiga mansub "O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi" o'quv qo'llanmasida yangi tipdagi adabiy tanqidning paydo bo'lishida milliy uyg'onish harakati, jadid adabiyoti, ayniqsa, dramaturgiya va teatrchilik sohasidagi o'zgarishlar va birinchi navbatda matbuotning rolga katta e'tibor qaratiladi.<sup>1</sup>

B.Rahmonovning "O'zbek adabiy tanqidchiligi" nomli qo'llanmasida bu omillar quyidagicha ko'rsatiladi:

1. Boy adabiy meros, og'zaki va yozma adabiy tanqid an'alarining mavjudligi.
2. XX asr boshida yuzaga kelgan ijtimoiy-tarixiy sharoit.
3. Jadidchilik g'oyalari ta'sirida adabiyotning yangilanishi.
4. Adabiy-madaniy aloqalar, tashqi ta'sir<sup>2</sup>.

Muallif bu omillar orasida XX asr boshlarida yuzaga kelgan ijtimoiy-tarixiy sharoitning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi.

Albatta yangi tipdagi adabiy-tanqidiy qarashlarning yuzaga kelishida yuqorida qo'llanmalarda e'tibor qaratilgan omillarning ahamiyati katta.

---

Qarang:

1.Safarov, O, Yo'ldoshev,B. Ahmedova,Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi, BuxDU nashriyati,2003. 40-47 betlar.

2.Rahmonov,B. O'zbek adabiy tanqidchiligi, T.:, "Yangi asr avlodi", 2004,19-20 betlar.

Ular tashqi omil sifatida muhim rol o'ynaydi. Biroq, adabiy tanqidning, umuman har qanday yangi tipdagi jarayonning vujudga kelishi va shakllanishida eng avvalo ichki omil hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini, mana shu ichki omilgina tashqi omilni ham harakatga keltiruvchi kuch ekanligini nazardan soqit qilmaslik zarur. Ichki omil sifatida eng avvalo tanqid tafakkuridagi evrilishlar, munaqqid "men"ining o'zligini, salohiyatini namoyon qila olish, ijtimoiy –adabiy, badiiy-estetik tafakkurdagi o'zgarishlarga o'z ta'sirini o'tkaza olishi nazarda tutiladi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, yangi tipdagi adabiy tanqidni vujudga keltirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ichki va tashqi omillar o'rtasida bir-biridan ajratib turadigan "Xitoy devori" yo'q. Bu omillar biri ikkinchisini taqozo etadigan, uzviy bog'langan jarayondir. Ularni bir-biridan farqlash shartli bo'lib, yangilanish, vujudga kelish tanqid "men"idan voqelikka qarab harakatlanuvchi kuch ekanligini inobatga olish zarur, xalos.

Yangi tipdagi XX asr adabiy tanqidchiligini davrlashtirishda ham masalaga shunday yondashish maqsadga muvofiq. Adabiy tanqid tarixini davrlashtirishda turli davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog'liq holda emas, balki eng avvalo adabiy tanqidning ichki taraqqiyot qonunlaridan kelib chiqib davrlarga ajratish zarur. Albatta, tashqi omillarning ham muhim ahamiyati bor. Davrlashtirishda tarixiylik tamoyillariga katta e'tibor berish lozim. Mazkur qo'llanmada shu asosda yangi o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixini quyidagicha davrlashtirish maqsadga muvofiq deb topildi.

1. Jadid tanqidchiligining paydo bo'lishi, shakllanishi va takomili (1900-1920). 2. Ma'fura tazyiqidagi adabiy tanqid: Evrilish mashaqqatlari (1930-1950). 3. Mahorat va g'oyaviy- badiiy izchillik uchun kurash (1960-1990). 4. Adabiy tanqidda umum bashariy mezonlarning qaror topa boshlashi (1991-2000; XXI asrda davom etishi).

Malumki, jamiyat tarixi, tuzum tarixi va, xatto, ma'lum ma'noda, badiiy adabiyot taraqqiyoti tarixi ham adabiy tanqid tarixini davrlashtirish, undagi etakchi xususiyatlarni, asosiy taraqqiyot tamoyillarini belgilash uchun asosiy omil bo'lolmasligi mumkin. Chunki, jamiyat tarixi, badiiy adabiyot tarixi adabiy tanqidni

namoyon etish uchun ijtimoiy va badiiy- estetik asosgina xalos. Adabiy tanqidning muayyan davrdagi taraqqiyoti, bu davrlardagi o'ziga xosliklari esa, uning tabiatidagi, tafakkur tarzidagi, muammolarni qo'yish va hal etishdagi xususiyatlarga qarab belgilanadi. Shu ma'noda adabiy tanqid tarixining har bir davri o'zidan oldingi va keyingi bosqichlardan farqlanib turuvchi asosiy belgilariga ega bo'ladi. Bu belgilar haqida gap ketganda eng avvalo adabiy tanqidning janrlardagi yangilanishlar, unga yangi kuchlarning kirib kelishiva taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillar nazarda tutiladi. Shuningdek, an'analarining yangilanishi, badiiy adabiyotdagi o'zgarishlar, taraqqiyotning ham adabiy tanqid rivojida o'rni katta. Bular barchasi professional tanqidchilikning vujudga kelishi va shakllanishida katta ahamiyatga egadir. Bu davrda tanqidchilik rivojida etakchi tamoyillar yuzaga kela yuoshladi. Adabiy tanqid va tafakkurning turli shakllari aro aloqadorlik masalalariga jiddiy e'tibor qaratila boshladi.

Jadid tanqidchiligining paydo bo'lishida ma'rifatparvarlik g'oyalarining o'rni katta bo'ldi. Mazkur g'oyalarning milliy uyg'onish motivlari ilan sug'orilgan adabiyotni vujudga keltirishi esa yangicha adabiy- estetik qarashlarning shakllanishiga olib keldi.

Adabiy tanqidda yangicha tafakkur tarzining vujudga kelishida matbuotning roli katta bo'ldi . XX asr boshlarida jadid nomayandalarining xatti-harakatlari bilan o'zbek milliy matbuoti vujudga keldi. Bu davrda chop etila boshlagan "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Tujjor", "Turon", "Sadoi Farg'ona", "Sadoi Turkiston", "Samarqand" gazetalari "Oyna", "Al-isloh" kabi jurnallar o'zbek matbuotining ilk janrlari sifatida xarakterlidir. Milliy matbuotning yuzaga kelishi adabiy tanqidning amaliyot shakliga o'tishiga, adabiy jarayonda aktiv ishtirok etishi va shu asosda o'zining etakchi tamoyillarini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qildi.

Matbuot orqali yuzaga kelgan yangicha dunyoqarashning estetika va tanqidiy tafakkurga ta'siri. I.Gasparali, M.Behbudiy kabi jadidchilik harakatining asoschlari ta'sirida o'zbek milliy estetikasi, tanqidchiligi va ularda yangi, ilg'or yo'nalishi zuhur topa boshladi. Yangi o'zbek tanqidchiligining shakllanishi va rivojiga M.Shermuhamedov, Munavvar Qori, Ashurali Zohiriy, Fitrat, Cho'lponlar katta hissa

qo'shdilar. Bu davrda yangi o'zbek tanqidchiligida Qadimchilar va Jadidlar aro jiddiy kurashlar kechdi. Bu kurashlar "Alq-isloh" jurnali nashr etilgandan so'ng uning sahifalarida avj ola boshladi. Jurnalning 1915 yil 5-6 sonlarida chop etilgan Ibrohim Tohiriyning "Matbuot va isloh" nomli maqolasida ma'rifatparvar ijodkorlar masxaromuz so'zlar bilan haqoratlandilar.

"Oyna" jurnalining 1915 yil 12-sonida javob maqolasi e'lon qilindi. Maqolada tanqidiy fikrlar dalillar bilan asoslanishi zarurligiga e'tibor qaratiladi. Biroq jadid ma'rifatparvarlariga qarshi hujum avj olaveradi. Ketma-ket chiqqan maqolalarda musiqa, qo'shiq hatto Muqumiy, Furqat, Zavqiy, Kamiy, Noqis, Xislat, Nusrat kabi ijodkorlarning ishqiy mavzuda yaratilgan asarlari ham g'ayriyahloqiy deb e'lon qilindi. Ayniqsa, Maqsudxo'ja Mufti chiqishlari nohaq ayblovlardan bo'ldi. U, she'riyatda qo'llaniladigan oh-voh, mahbub, jonon... kabi so'zlar bo'lgan asarlarni g'ayriy ahloqiy deb hisoblaydi.

Bu kabi qarashlar adabiy tanqidda yangicha tafakkur tarziga o'tish oson kechmaganligidan dalolat beradi. Vujudga kela boshlagan yangi adabiy tanqidning estetik tamoyillari milliy uyg'onish harakatining mafkuraviy yo'lboshchilari qarashlari asosida paydo bo'la boshladi. "Tanqid" atamasi, "Tanqid saralamoq", "Tanqid mushohada yuritmoq" singari ta'riflar yuzaga chiqa boshladi.

Adabiy tanqid istilohi dastlab qo'qonlik munaqqid Ahlullo Haybullo o'g'lining "Tanqid" ("Sadoi Turkiston", 1914 yil 19 noyabr, 3-dekabr) nomli maqolasida qo'llanilgan. Bunda muallif "tanqid" istilohini sharhlar ekan, uning mumtoz tanqidchiligidagi "saralamoq" ma'nosi bilan tatar adabiyotida qo'llanilayotgan ma'nosiga e'tibor qaratadi.

Shuningdek, M.Behbudiyning "Tanqid-saralamoqdur" (Tanlangan asarlar, T.; 1997) Hoji Muinning "Padarkush" haqidagi "Yangi asar" (TVG, 1914, 2 aprel) nomli taqrizi, Ashurali Zohiriyning "Ona tili" ("Sadoi Farg'ona", 1914, 13 aprel), Cho'lponning "Adabiyot nadur?" ("Sadoi Turkiston", 1914, 3 iyun) kabi maqolalarida adabiyot, adabiy tanqid, ona tili haqidagi kuzatishlari o'z ifodasini topa boshladi. Natijada ma'naviyat va ruhiyatda badiiy adabiyotning o'rni, hissasi haqidagi ilk qarashlar paydo bo'la boshladi. Bu davrda teatr ham adabiy tanqidning

shakllanishida etakchi rol o'ynadi. Dastlabki o'zbek dramalarining sahnaga ko'yilishi munosabati bilan chop etilgan ilk teatr taqrizlarining yangi o'zbek tanqidchiligi shakllanishidagi o'rni juda katta bo'ldi.

Oktyabr to'ntarishidan keyingi vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat jadidchilik harakatining ham yangicha yo'nalish kasb etishiga olib keldi. Xususan, Muxtoriyatning tashkil topishi bolsheviklar tomonidan qonli bostirilishi, fuqoralar urushining avj olishi jadid ijodkorlarining turli yo'nalishlarga bo'linishlariga sabab bo'ldi. A.Avloniy, H.H.Niyoziy, S.Ayniy kabi ijodkorlarning yaratgan asarlarida ko'proq davr vokelari bilan hamnafaslik ruhi etakchilik qila boshladi. Ular o'z faoliyati bilan ham yangi zamonga xizmat qila boshladilar.

Bu davrda jadid ijodkorlari boshlab bergan yangi tipdagi o'zbek adabiyoti o'zining yuksak namunalarini yaratdi va tom ma'noda XX asr o'zbek realistik adabiyotiga asos soldi. Nasrda A.Qodiriy, nazmda Cho'lpon, dramaturgiyada Fitrat yangi tipdagi adabiyotning asoschilari bo'ldilar. Ular o'z asarlarida jadidlar ilgari surgan ma'rifatparvarlik g'oyalarini milliy uyg'onish, o'zlikni anglash kontseptsiyasi bilan yangiladilar.

Ayni chog'da ular asarlari badiiyatning yuksak cho'qqilarini zabt, badiiy tafakkurni umumbashariy qadriyatlar bilan boyitdilar. Tabiiyki, bu o'zgarishlar adabiy tanqid tafakkuriga ham ta'sir etdi va adabiy tanqid o'z e'tiborini u ijodkorlarga qaratdi. Shu bois bu davr tanqidchiligida Cho'lpon, Qodiriy va Fitrat ijodi bahs-munozaralar manbai bo'ldi. Mumtoz adabiyoti muammolari ham jiddiy bahlarga sabab bo'lgan. Shu jihatdan A.Sa'diy va V.Mahmudning zamonaviy va mumtoz adabiyot haqidagi qarashlari xarakterlidir. Bu munaqqidlar faoliyati timsolida jadid tanqidchiligida rus, evropa va sharq musulmon estetik tafakkurining sinkretizmini ko'rish mumkin. Bu hol ayniqsa A.Sa'diy va Fitrat yaratgan nazariy qo'llanma va darsliklarida yaqqolroq namoyon bo'ldi. 20-yillardayoq jadid tanqidchiligi bilan sho'ro tanqidchiligi qarashlari orasidagi ilk ziddiyatlar ko'zga tashlana boshladi. Bu ziddiyat ayniqsa Navoiy ijodiga jadidona va sho'roviy mafkura asosida qarashlarda ko'rinadi.

Jadid tanqidchiligida adabiy portret yaratishdagi dastlabki tajribalaramalga oshirildi. Cho'lpon, Fitrat, yoshlar ijodi atrofidagi bahslar kuchaya boshladi.

Jadid tanqidchiligida badiiy adabiyotni rivojlantirish vositasida istiqlool va ozodlik uchun kurash g'oyalari ilgari surila boshlandi. Tanqidchilikda qahramon muammosi ko'tarildi. Jadid tanqidchiligi shakllanishda "Chig'atoy gurungi" va "Qizil qalam" jamiyatlarining o'rni katta bo'ldi. 20-yillarning oxiri 30- yillarda jadid tanqidchiligiga mafkuraviy tazyiqlar boshlandi. Bu hol sinfiylik, partiyaviylik kabi g'ayriilmiy printsiplarning tanqidchilikka zo'rovonlarcha suqultirilishi oqibatida yuz berdi. Jadid tanqidchiligi bu printsiplarni qabul qilmadi. Shu bois bu davrda jadid tanqidchiligida Cho'lpon, A.Qodiriy, Fitrat, Xamza ijodlarining xolis baholanganligini kuzatish mumkin. Z.Bashir, A.Sa'diy, V.Mahmud maqolalari shu jihaidan xarakterlidir.

Jadid tanqidchiligining tug'ilishi va rivojlanishida Fitrat, Cho'lpon va Oybekning ham yozuvchi, ham tanqidchi sifatidagi hissasi katta bo'ldi

Fitrat (1886-1938) -yangi o'zbek tanqidchiligi va adabiyotshunos ligining asoschilaridan biridir. Mumtoz adabiyot janrlari namoyandalari haqidagi Fitrat tadqiqotlarining adabiy tanqidga ta'siri katta bo'ldi. "O'zbek adabiyoti namunalari" (1927) asaridan o'rin olgan yozuvchilar hayoti va ijodining tahlili xarakterlidir. Bu davrda Fitrat ilmiy asarlari haqida tanqidchilik o'z fikr – mulohazalarini bayon eta boshladi. Turlicha munosabat qaror topdi.

Shu jihatdan Jamol Boybo'ltaev va Fitrat o'rtasidagi bahs xarakterlidir. J.Boybo'latov "O'zbek adabiyoti va chig'otaychilik" nomli maqolasida nigilistik qarashlar hukmronlik qiladi. Unda madaniy merosni tamoman inkor etish tendentsiyasi kuchli. Shuningdek, Fitrat va kitobga so'zboshi yozgan O.Hoshim sha'niga g'ayriilmiy munosabat mavjud. Bunga javoban O.Hoshimning "Adabiy meros va chig'otay adabiyoti" ( "Qizil O'zbekiston",1927,16,17 iyul), Fitratning "Yopishmagan gajaklar" ( "Qizil O'zbekiston",1927,15,16 sentyabr) maqolalari chop etildi. Ularda J. Boybo'latovning qarashlari ilmiylikdan xoli, xato qarashlar ekanligi qator tahlillar bilan asoslab beriladi.Fitratning adabiy portretlarining, xususan,



“Mashrab” portretining o‘zbek portretnavislikka qo‘shgan hissasi. Fitrat ilmiy qarashlaridagi ayrim cheklanishlar.

Fitratning qadimgi turkiy adabiyot namunalari haqidagi maqola –tadqiqotlari. Fitrat ilmiy faoliyatida adabiyotshunoslik va adabiy tanqid aro farqning namoyon bo‘lishi. Fitratning hozirgi san‘at, adabiyot haqidagi qarashlari. “Adabiyot qoidalari” darslik tadqiqoti. “Chig‘atoy gurungi” va Fitrat faoliyati.

Cho‘lpon (1897-1938) faol jadid tanqidchisi va nazariyotchisi sifatida. “Adabiyot nadur?” maqolasining jadid tanqidchiligidagi ahamiyati. Yangi o‘zbek tanqidchiligidan badiiylik uchun kurashida Cho‘lponing o‘rni. Cho‘lpon jahon adabiyotining Shekspir, Pushkin, R.Tagor singari daho namoyandalari ijodi haqida maqolalar yozgan dastlabki o‘zbek tanqidchisi sifatida. Cho‘lpon hayoti va ijodida dramaturgiyaning o‘rni. Jahon dramaturglari, ularning sahna asarlari talqini haqidagi Cho‘lpon taqrizlari. “Ulug‘ Hindiy”, “Adabiyot nadur?”, “Tarixning zararlik takarruri” maqolalarining tahlili.

Cho‘lpon maqolalarida mumtoz shoirlar ijodining yangi zamonaviy talqini: “500 yil”, “Uvaysiy”, “Tagor va tagorshunoslik”. Ularning adabiy jarayonga ta’siri.

San‘atning boshqa turlari haqidagi Cho‘lpon maqolalari va taqrizlari.

Cho‘lponing tanqidchilik faoliyati hozirgi adabiyotshunos, yozuvchilar talqinida.

Jadid va sho‘ro tanqidchiligi aro oshkora va pinhona kurashlar. 1923 yildan boshlab sho‘ro hukumatining jadidchilikka qarshi keng ko‘lamda kurash boshlashi. 1927 yildagi o‘zbekiston ziyolilarining qurultoyi: Cho‘lpon va cho‘lponchilikka qarshi kurashning boshlanishi. A.Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat asarlari vulgar sotsializm ta’siridagi tanqidchilar talqinida. M.Sheverdin, Ayni, S.Husayn, Usmonxon, A.Sa’diy maqolalari.

Adabiy tanqid va mafkuraning o‘zaro munosablari.

-Komunistik partiyaning adabiyot va san‘at sohasidagi siyosatining falsafiy-estetik qobiqqa burkanishi.

-RKP(b), (VKP(b) MK ning badiiy adabiyot sohasidagi qarorlari ma’nomohiyati.

-Sotsialistik realizm metodi haqidagi ta'rif va nazariy qarashlarning xolis falsafiy-estetik tafakkur yo'nalishdan og'ish ekanligi.

-“Konfliktsizlik nazariyasi” singari soxta talablarning tanqidchilik va adabiyotga ko'rsatgan zararli ta'siri.

-XX asrning 50-yillari oxiri va 60-yillar boshida roman janri inqirozi, gumanizm, go'zallikni anglash muammolariga oid ilmiy anjuman-bahslar va ularning tanqidchilikka ta'siri.

-70-yillardan sho'ro adabiyotida sotsrealizmning inqirozga yuz bura boshlaganini ko'rsatuvchi tamoyillar va ularning adabiy tanqididagi aks sadosi. o'zbek adabiyotida sotsrealizmning paydo bo'lishi, taraqqiyoti masalasiga bag'ishlangan konferentsiya va uning ta'siridagi adabiy tanqid evrilishlari.

-80-yillarda sotsialistik realizm metodidagi asarlarning o'zbek tanqidchiligida taftish qilinishi, yangi qarashlar. “Boy ila xizmatchi” dramasi, Abdulla Qahhor hikoya va qissalari haqidagi maqolalar, “Rahbarlar adabiyoti”ning tanqidi.

Tipiklik, zamonaviylik, xalqchillik, mavzu, qahramon singari muammolar hususida sho'ro mafkurasining izchil etagidagina fikr yuritish bilan badiiylikning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqib fikr yuritish tamoyillarining yonma-yon va qorishiq kechishi. Janr va badiiy asar poetikasi muammolari talqini.

Dunyoqarash, g'oyaviylik, badiiylik haqidagi cheklangan va bir yoqlama qarashlar; bunday cheklanganlik iskanjasidan chiqishga urinishlar. Lirika haqidagi bahslar. Adabiy ta'sir masalalari talqinida siyosat izlari.

Tazyiq, nohaq doktrina, qatag'onlar adabiy hayotning o'sish-o'zgarish qonuniyatini, badiiy ijod taraqqiyotini, talantli asarlarni baholashni izdan chiqarib yubora olmasligi. XX asrning 30-50 yillarida sho'ro hukumati san'at va adabiyot sohasida noto'g'ri siyosat olib borganligi. Shunday sharoitda ham adabiy tanqidda qo'pol xatolar bilan birga ijobiy ishlar amalga oshirilgani. Adabiy-badiiy tashkilotlarni qayta qurish qarori (1932, 23 aprel) mohiyati: uning o'zbek adabiy hayoti va tanqidchiligidagi o'rni. Yangi o'zbek adabiyotining yangi asarlari H.Yoqubov, I.Sulton, O.Sharafiddinov, Sotti Husayn, G'ulom Karimov singari yosh munaqqidlar tomonidan talqin etilishi. Izlanish, evrilish, yutuq va kamchiliklar

Oybekning tanqid muammolari, H.Yoqubovning Oybek lirikasi, Olim Sharafiddinovning G'afur G'ulom, Uyg'un she'riyati haqidagi maqolalarida yangi fikrlarning ilgari surilishi. Yangi o'zbek tanqidchiligining adabiy janrlar, yangi inson obrazi, adabiyotlar aro aloqa haqidagi qarashlari. o'zbek professional tanqidchiligining "Sarob", "Qutluq qon", "Kecha va kunduz" haqidagi maqolalari, bahslari. Abdulla Qodiriy ijodining xato va to'g'ri talqinlari. Vulgar sotsiologim va xolis estetik tanqid aro kurash jarayonlari. Cho'lpon, Usmon Nosir asarlariga doir qarashlardagi ziddiyatlar.

O'zbek adabiyotshunoslari va tanqidchilarining umumittifoq miqyosiga chiqq boshlashi.

RAPP, O'zAPP, "Qizil qalam" faoliyati. Oybek, Ayn, Sotti Husayn, O.Xoshim, R.Majidiy, Usmonxon, Anqaboy Xudoybaxtov, J.Boybo'latov faoliyatlarida siyosat va adabiy tanqidning o'rni. Tanqid va siyosat. "Adabiyot sohasida ilmiy tekshirishlar" to'plamidagi maqolalar tahlili. Mumtoz merosga adabiy tanqidning munosabati. Ta'qib, o'zgarish, o'sish va xolislik. Pushkin, Rustaveli, Navoiy yubileylarini o'tkazishga tayyorgarlik asnosida adabiy tanqidagi jonlanishlar. 37-yil qatag'oni bois adabiy tanqidning jonli adabiy jarayon va zamonaviy adabiyot tahlilidan qochib, ko'proq o'zbek va qardosh mumtoz adiblar ijodi talqiniga yuz burgani.

Ikkinchi jahon urishi davridagi o'zbek tanqidchiligining o'ziga xos xususiyatlari.

"Navoiy" va "QO'shchinor chiroqlari" , "Oltin vodiyan shabadalar" romanlari tahlili misolida o'zbek tanqidchiligining yutuq va kamchiliklari.

50-yillar oxiridan o'zbek tanqidchiligiga yangi to'lqinlarning kirib kelishi.

Darslikda ijodlari maxsus portret sifatida o'rganiluvchi munaqqidlardan tashqari, bu davrda Olim Sharafiddinov, Sotti Xusayn, Oybek va boshqalar o'z maqolalari, tadqiqotlari bilan adabiy tanqidiy jarayonga faol ta'sir ko'rsatganligi.

Olim Sharafiddinov –XX asr tanqidchiligidagi murakkab shaxslardan biri. Olimning adabiyotshunoslikka kirib kelishi. Mumtoz, turk dunyosi adabiyotini

chuqur o'zlashtirish. 20-yillarning II yarmida Aynning Cho'lpon, Qodriy ijodiga munosabati. Bir shaxsda mafkura va adabiy nafasat aro kurashning aks etishi.

30-yillar adabiy hayotida Aynning o'rni. Uning pedagogik, tanqidchilik, o'quv-usulchilik faoliyati. O.Sharafiddinov-navoiyshunos, "Alisher Navoiy hayoti va ijodi" ktiobining XX asr o'zbek navoiyshunosligidagi o'rni.

Oybek. XX asr o'zbek badiiy adabiyoti bilan bir qatorda yangi o'zbek tanqidchiligining, adabiyotshunosligining yirik vakili. Badiiy va ilmiy ijod bilan shug'ullanish aksar yirik o'zbek adiblari uchun mushtarak xususiyat ekani. Navoiy, Bobur, Hasanxoja Nisoriy, Muhammad Solih, Fazliy Namangoniy, Feruz, Ayniy, Fitrat, Oybek, M.Shayxzoda, P.Qodirov singari ijodkorlarning ilmiy faoliyat bilan shug'ullanganligi.

Yangi o'zbek adabiy tanqidchiligida o'tgan asrning 20-yillaridan xolislik printsiplari shakllanishi, badiiylik bosh mezon ekanligiga e'tibor qaratishda Oybekning roli.

Oybek Cho'lpon shaxsi va ijodining o'zbek tanqidchiligidagi ilk mutorizlaridan biri. Davr ta'siri tufayli yo'l qo'yilgan ayrim kamchiliklarga qaramay, Oybek mafkura tazyiqi ashaddiy bo'lgan o'tgan asrning 20-30-yillarida ham o'zbek tanqidchiligining ilg'or metodologiyasi uchun kurash olib borgan nazariyotchi-tanqidchi. Abdulla Qodiriy ijodi Oybek talqinida. Navoiy haqidagi Oybek tadqiqotlarining o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligiga ta'siri. Uning "o'zbek adabiyoti", "Adabiyot, tarix, zamonaviylik" nomli maqolalarida yangi qarash, tushunchalarning aks etishi. Oybekning 20 jildlik "Asarlar" ida tanqidchilik va adabiyot-shunoslik faoliyatining aks etganligi.

Sotti Husayn – jurnalist, adib, tanqidchi. Uning RKP(b) MK ning 1925 yil 18 iyun qaroridan keyin jurnalistika, adabiy tanqid maydoniga kirib kelgani. S.Husaynning "Yosh leninchi" gazetasida, yosh ijodkorlar to'garagida olib borgan faoliyati. Sotti Husaynning "O'tkan kunlar" va "O'tkan kunlar" tadqiqot –taqrizi. Uning tarixi. Taqrizga Qodiriy munosabati. Vulgar sotsiologizmning o'zbek tanqidchiligidagi yorqin misoli bo'lgan mazkur asarning o'zbek tanqidchiligidagi o'rni. Sotti Husaynning 30-yillardagi faoliyati. "15 yil ichida o'zbek adabiyoti" ilmiy

tanqidiy to'plamning nashr etilishida S.Husayn hissasi. Tanqidchining Xamza ijodiga munosabati. Xamza ijodini vulgar sotsiologizm asosida o'rganilishiga S.Husayn maqolalarining turtki bo'lganligi.

Sotti Husaynnig hayoti, badiiy ijodi haqida ma'lumot.

40-yillar o'zbek tanqidchiligi: "Qutluq qon", "Navoiy", "Qo'sh chinor" romanlari haqidagi bahslar. "Muqqana", "Jaloliddin Manguberdi" singari tarixiy asarlar haqidagi maqolalar.

VKP(b) MK ning 1946, 1948 yillardagi qarorlari va konfliksizlik "nazariya" si. Bu "nazariya"ning vulgar metodologik asoslari. KPSS 20-se'zdida adabiyot, san'at, adabiy tanqid masalalari.

Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlarning sotsrealizm metodiga, adabiy tanqidga taalluqligi.

Sarvar Azimov, Solih Qosimov, Abdulla Olimjonov, Hamidulla Ubaydullaev maqolalarida zamonaviy adabiyot namunalarining tahlil etilishi.

Sotsrealizm metodining nazariy asoslari haqida I.Sulton va H.Yoqubov bahslari. H.Yoqubov va o'zbek tanqidchiligida tanqidiy ocherk janri.

#### **4-mavzu. Vadud Mahmud hayoti va ijodi.**

Reja.

1.V.Mahmudning adabiy-estetik qarashlari.

2.V.Mahmudning adabiy merosga munosabati.

3.Adabiy jarayon va V.Mahmudning ijodiy printsiplari.

Tayanch so'zlar: jadid munaqqidi, adabiy bahs, panturkizm, panislomizm, vulgar sotsiologizm, nigilizm, madaniy merosga munosabat, tasavvuf, ruhiyat qirralari, she'r tuzilishi, badiiy til imkoniyatlari.

Vadud Mahmud o'zbek tanqidchilshigi shakllanishida sezilarli iz qoldirgan munaqqidlardan biridir. Uning 20-yillardagi adabiy-estetik qarashlari tanqidchilikda badiiy asarni yangicha idrok etishning o'ziga xos namunalaridan biridir.

Vadud Mahmud 1897-yilda Samarqand shahrida ruhoniylar oilasida tavallud topdi. Dastlabki savodni jadid maktablarida chiqargan Vadud Mahmud tez orada mumtoz adabiyot namunalaridan bahramand bo'ldi.

Vadud Mahmudning 20-yillar ijodiy faoliyati keng qamrovli bo'lsa-da, lekin u ko'proq adabiyotshunos olim va munaqqid sifatida tanildi. U qisqa vaqt – 20-yillarning boshlaridan 1926 yilgacha maqolalar chop ettirgan bo'lsa-da, adabiy jarayonda sezilarli iz qoldirdi. Vadud Mahmud 1929-yilda millatchi sifatida qamalib, 1934-yilda ozodlikka chiqdi. Biroq uch yildan so'ng yana hibsga olinib umrini to 1956-yilgacha qamoqda o'tkazdi. 1976-yilda vafot etdi.

Vadud Mahmudning adabiy-estetik qarashlari keng qamrovlidir. U o'zining badiiy asar tabiatiga oid ilmiy-nazariy, falsafiy, estetik qarashlarini jahon adabiyoti namoyandalari bo'lmish R.Tagor, Edgor Po kabi ijodkorlardan tortib Navoiy, Fuzuliy, turk shoiri Ajziy kabi ijodkorlar ijodigacha qamrab olgan holda ifoda etadi. Shu jihatdan munaqqidning Edgor Po haqidagi “Ijod sirlari”, “Navoiygacha turk adabiyoti”, “Alisher Navoiy”, “Fuzuliy Bag'dodiy”, “Navoiy uchun”, “Turk adabiyoti tarixi”, “Turk shoiri Ajziy” kabi maqolalari xarakterlidir.

Munaqqidning zamondoshlari Fitrat va Cho'lpon ijodiga oid kuzatishlari ayniqsa qimmatlidir. Fitratning “Chin sevish” va “Xind ixtilochilari” dramalariga sahna talqiniga yozgan taqrizlarida bu asarlar poetikasiga oid qimmatli fikrlarni ilgari suradi, yutuq va kamchiliklariga xolis to'xtaladi.

Vadud Mahmud Cho'lpon ijodiga yuqori baho beradi. U o'z davrida cho'lponshunos olim sifatida e'tirof etiladi. Uning “Cho'lponning “Buloqlar”i” nomli taqrizida Cho'lpon she'riyatiga xos badiiy yuksaklikni, go'zallikni o'ziga xos tarzda kashf etadi, uni ulug'laydi. Go'zalligini targ'ib etuvchi munaqqid sifatida taniladi.

Bu xol ayniqsa A.Sa'diy bilan matbuotda kechgan bahsida yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Uning “Adabiy tanqidga bir nazar”, A Sa'diyning savodi” kabi maqolalarida ilgari surilgan ilmiy kontseptsiya shu jihat bilan xarakterlidir.

Vadud Mahmud (1898-1976). hayoti va ijod yo'li haqida ma'lumot.

XX asr professional o'zbek tanqidchiligi shakllanishida Vadud Mahmud hissasi. Badiiy idrok tanqidchining asosiy xususiyatlaridan ekanligi. Alisher Navoiy, Cho'lpon ijodi Vadud Mahmud talqinida. “Alisher Navoiy”, “Turk shoiri Ajziy”, “Cho'lponing “Buloqlar”i” maqolalari va taqrizining tahlili. Vadud Mahmud ijodida

tarixiy-qiyosiy, tarixiy-tipologik yondashuvining o' rni. Tanqidchi asarlarida R.Tagor, M.Gandi, Edgar Po asarlariga munosabat. Uning maqolalarida vorisiylik masalasi. Navoiy, Fuzuliy, Ajziy asarlarining xolis talqini. Mazkur maqolalardagi ishqi ilohiy, ishqi majoziy haqidagi mulohazalar. V.Mahmud ijodi haqida 20-30 yillar tanqidchiligi.

Adabiy tanqid go'zallik kashf etishi zarurligi haqida. V.Mahmud "Yosh o'zbek shoirlari", "Sa'diyning savodi" singari maqolalarda d

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

- 1.V. Mahmud. "Turk shoiri Ajziy", Uz AS, 1989, 10 noyabr.
- 2.V. Mahmud."Alisher Navoiy", "Yoshlik", 1991 yil, 5-son
- 3.Karimov B. Jadid munaqqidi Vadud Mahmud. -T.: 2000 yil
- 4.Karimov B. Vadudning nazari. Uz AS 1994 yil, 25 mart
- 5.Fitrat. Adabiyot qoidalari. -T.: 1995
- 6.Karimov N. Istiqlolni uyg'otgan shoir". -T.: 2000
- 7.Safarov O, Yo'ldoshov B, Ahmedov Sh. Uzbek adabiy tanqidchiligining tarixi. Bux DU. 2003
- 8.Rahmonov B. "Uzbek adabiy tanqidchiligi". -T.: 2004

### **5-mavzu: Abdurahmon Sa'diy hayoti va ijodi.**

Reja.

- 1.Abdurahmon Sa'diyning adabiy-estetik qarashlari.
- 2.Abdurahmon Sa'diyning madaniy merosga munosabati.
- 3.Abdurahmon Sa'diy nazariyotchi olim sifatida.

Tayanch so'zlar: madaniy merosga munosabat, mumtoz adabiyot, tasavvufiy qarashlar, Yassaviya ta'limoti, janrlar tasnifi, maqola, umumlashma maqola, baxs-munozara, ijodkor va tanqid munosabati masalasi, tanqid va tanqidchi munosabati masalasi.

Abdurahmon Sa'diy o'zbek tatar ma'naviy-madaniy aloqalari hamda adabiy hamkorligi tarixida yorqin sahifalardan birini tashkil etuvchi iste'dodli adabiyotshunoslardandir. U 1889 yilning 14 aprelida Ufada mulla-mudarris oilasida

tug'iladi. Boshlang'ich ta'limni otasining maktabida oladi. 1902-1905 yillarda Orenburgdagi Muhammadiya madrasida o'qidi. 1921 yilning oxirlarida Toshkentga keladi va umrining oxirigacha Toshkent, Samarqand, Buxoro oliy o'quv yurtlarida dars beradi, o'zbek adabiyoti sohasida ilmiy tadqiqotlar yaratadi. Samarali ilmiy tadqiqotchilik va pedagogik faoliyati uchun unga 30-yillarda dissertatsiya yoqlamay, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasi va professorlik unvoni berilgan.

Abdurahmon Sa'diy, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodiy faoliyatini o'rganishda alohida g'ayrat ko'rsatdi. 1949 yilda E. Bertels rahbarligida "Alisher Navoiy ijodi-o'zbek klassik adabiyotining oliy bosqichi" mavzuida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

Adabiy tanqidning jonlanishida ijobiy rol o'ynagan usul, shubhasiz, sog'lom yo'nalishda turib yozilgan tanqidchining yozuvchi ijodi haqidagi xolisona fikri muhim ahamiyatga ega, albatta. Abdurahmon Sa'diy Hamza va Abdulla Qodiriylar haqida juda to'g'ri fikr-mulohazalar bildirgan edi. Shubhasiz, u o'z davrining kishisi sifatida Hamzaning inqilobiy, sinfiy ruhdagi faoliyatiga urg'u beradi. Shunday bo'lsa-da Hamza haqidagi ayrim fikrlari hamon eskirmaganligi bilan e'tiborni tortadi.

Abdurahmon Sa'diyning Abdulla Qodiriy haqidagi mulohazalari ham haqiqiy ahvolni to'g'ri ifodalaydi. U Abdulla Qodiriyni hikoyalar, ayniqsa hajviy hikoyalar ustasi bo'lgan yosh va kuchli adib sifatida xarakterlaydi.

Abdurahmon Sa'diyning "Oktyabr o'zgarishi va o'zbek adabiyoti" ("Turkiston" 1922 yil, 7 noyabr) maqolasini tanqidchilikning hayotga va adabiyotga yuz o'g'irganligini ko'rsatuvchi dastlabki namuna sifatida e'tirof etish mumkin.

"O'zbek yosh shoirlari" (Turkiston" 1923), "O'zbek adabiy ijodi maydonida harakat", (1924 yil) sarlavhali maqolalari ham o'zbek adabiyotining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatganligi bilan qimmatlidir.

U Vadud Mahmudning "Turkiston" gazetasidagi tanqidiy maqolalariga munosabat bildirarkan O'zbek yoshlari o'rtasidan adabiy tanqid qalamlari chiqq boshlag'onini" ko'rsatadi. Bu ham "Adabiyot bobida oltinchi yilning ijobiy hollari tomoniga yozila oladir",-degan fikrni izhor etadi. Uningcha adabiy tanqid kundalik



adabiy jarayon bilan chegaralanmay, balki adabiyotning muhim nazariy masalalarini ham o'rtaga qo'yib ularni echishga harakat qiladi.

San'at va adabiyotning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida birinchi bo'lib, keksa avlodga mansub tanqidchi va adabiyotshunoslar fikr yurita boshladilar. Abdurahmon Sa'diy bu sohada ham oldinda bordi. U o'zining "Go'zal san'at dunyosida" ("Inqilob" 1922) maqolasida yozadi "...Go'zallik haqidagi ong va tasavvurlar zamonlar o'tishi bilan turli o'zgarishlarga qarab o'zgaraturg'on bir narsadir. Go'zallik o'z-o'zicha bir ravishda borliqqa molik o'lg'on tamom mustaqil bir narsa emas, balki bizning shuurimizning va yoki...tushuncha va hukmlarimizning natijasidan iboratdir"

Tanqidchilik 20- yillardayoq janrlar masalasiga alohida diqqat qila boshladi. Abdurauf Fitrat, Z.Bashir, Olim Sharofiddinov, Sotti Husayn kabi tanqidchilar bilan bir qatorda Abdurahmon Sa'diy ham bu masalaga e'tiborini qaratdi. U o'zining "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" (o'rta maktablar uchun darslik,1924) kitobini yozadi.

Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligi va Fitratning "Adabiyot qoidolari"ga yozgan taqrizida Oybek alohida qayd etib "hozirgi sust davrda" muhim voqealardan biri bo'lganligini e'tirof qilgan. Chindanda, shu darslik tufayli Abdurahmon Sa'diyning ilk o'zbek adabiyotshunosi va nazriyotchilaridan biri deb atash mumkin. U birinchilardan bo'lib adabiy turlar va janrlar masalasiga daxl qildi. Va u darsligi uchun A.Shaligin, A.Potebnya, D.Ovsyaniko-Kulikovskiy, Aleksandr va Anatoliy Veselovskiylarning qarashlarini asos qilib oladi.

Abdurahmon Sa'diy o'zbek tanqidchiligini janrlar jihatidan boyitishga katta hissa qo'shganmunaqqidlardandir. U o'zbek tanqidchiligida obzor maqolaning asoschilaridan biri edi. "O'zbek yosh shoirlari", "Olti yil ichida o'zbek sheriyl adabiyoti" kabi tadqiqotlar obzor maqolaning ilk namunolari edi.

Madaniy merosni o'rganish bilan ancha jiddiy shug'ullangan Abdurahmon Sa'diy 1930 yildan e'tiboran diqqatini klassiklardan o'rganish masalasiga qaratdi. 1934 yili nashr etilgan "O'zbek burjua adabiyoti (XIXva XX asrlar)" darsligida

merosga ilmiy nuqtai nazardan yondashadi. Kitobdagi “Adabiy meros ham uni o’rganish yo’limiz” degan parchada rus yozuvchilari o’zlarining burjua jamiyatidan qolgan adabiyotlari bilan tanishib, uning foydalanadigan nuqtalaridan kerakligini olganlari kabi biz ham o’zbek burjua jamiyatidan qolgan adabiy merosimizni o’rganamiz” deyiladi.

“Inqilob” jurnalining 1922 yili 2-sonida Abdurahmon Sa’diyning Ahmad Yassaviy haqidagi maqolasi bosilib chiqqan. “Maorif va o’qituvchi” jurnalida 1927 yilda Fitratning Yassaviy haqidagi tadqiqoti chiqdi. Shundan ko’rinadiki, yassaviyshunoslikka ilk qadamni Abdurahmon Sa’diy qo’ygandir.

Mustaqil o’qish uchun adabiyotlar:

- 1.Sa’diy A. O’rta maktablarda adabiyot o’qitish metodikasining asosiy masalalari. -T.: 1934 yil.
- 2.Sa’diy A. Imom Fazzoliy G’G’ Sharq yulduzi, 2001 yil, 3-son.
- 3.Sa’diy A. Go’zal san’at dunyosida. G’G’ Uz AS, 2000, 12 may

## **6-mavzu. Otajon Hoshimov hayoti va ijodi.**

Reja.

- 1.Otajon Hoshimovning adabiy-estetik qarashlari.
- 2.Otajon Hoshimovning madaniy merosga munosabati.
- 3.Otajon Hoshimovning zamonaviy asarlar haqidagi qarashlari.

Tayanch tushunchalar: ijodiy metod, mumtoz adabiyot, adabiyotga munosabat, chig’atoy adabiyoti, tarjima nazariyasi, lotin yozuvi, anjuman, qurultoy, xalk; og’zaki ijodi, madaniy merosga munosabat, tarjimashunoslik, folklorshunoslik, folklor oyi "Ravot qashqirlari", "Ikkinchi xotin" kino san’ati.

O.Hoshim 1905 yili Toshkentda dehqon oilasida tug’ilgan. Avval diniy maktabda, so’ng 2 yil rus-tuzem maktabida o’qigan. 1918-21 yillarda Toshkentdagi yangi sho’ro maktabida, 1922-24-yillarda Moskvadagi Qizil professorlar institutining ishchilar fakultetida tahsil ko’rib, O’zbekistonga qaytgach, Fanlar Qo’mitasi raisi bo’lib ishladi. U o’sha yili Samarqandda O’zbekiston pedakademiyasini tashkil

qilishda qatnashdi. U mamlakatning qaysi markaziy o'quv yurtlariga ishga jalb etilsa, hamma joyda alohida tashabbus ko'rsatdi. 1929-33 yillarda Sankt-Peterburg (Leningrad)dagi fanlar akademiyasi qoshidagi Sharqshunoslik instituti aspiranturasida o'qib va ishlab, akademik A.Samoylivich rahbarligida O'zbekiston filologiya fanining dolzarb masalalari bo'yicha ilmiy ish olib bordi. O'rta Osiyo respublikalaridan borgan faylasuf, tilshunos, adabiyotshunos olimlar tayyorlash ishiga rahnamolik qildi.

1934 yildan to 1937 yilning o'rtalarigacha O'zbekiston Fanlar Komiteti raisi, Til va adabiyot instituti direktori va O'zbekiston Yozuvchilar soyuzida rahbarlik lavozimlarida ishlab turdi.

Ammo sho'rolar zamoni o'zbek adabiyotshunoslari va munaqqidlarining oldingi safidan o'rin olgan, mustaqil mikrlovchi O.Hoshimovni ham istibdod qurboniga aylantirdi. Ko'p yillar mobaynida uning nomi adabiyot tarixidan o'chirib tashlandi, asarlarini o'rganish u yoqda tursin, tilga olish ham ta'qiqlandi. Faqat yarim asr o'tgandan keyin adolat tilanib, haqiqat ro'yobga chiqa boshladi. O.Hshimov ham Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Botu, Usmon Nosir kabi ijodkorlar qatori xalqimizga qaytarildi.

O.Hoshimning matbuotda bosilgan birinchi maqolasi tanqidiy asar emas, balki sof falsafiy muammolarga bag'ishlangan "Dilalektika ham dialektika uchulida o'ylash" deb atlatadi. Maqola 1925 yilda "Maorif va o'qituvchi" jurnalining 3-7-8-sonlarida bosilgan. 20 yashar muallifning mazkur maqolasi o'zbek tilida markscha falsafa muammolaridan bahs qiluvchi dastlabki asar edi.

1934 yilda u Til va adabiyot institutini tashkil qilishda bosh-qosh bo'ldi va 1937 yilning avgustiga qadar shu institutning direktori vasifasida ishladi. O.Hoshimning ilm-fan bobidagi tashkilotchiigini, jonkuyarligini shunda ko'rish mumkinki, u juda qisqa muddat mobaynida institutga o'sha payitdagi eng etuk adabiyotshunos va tilshunos kuchlarni jamlay olgan edi. Bular orasida Aburauf Fitrat, G'ozil Olim, Miyonbuzruk, Oybek, H.Yoqubov, H.Olimjon, Uyg'un, Yahyo G'ulom, Hodi Zarif, Buyuk Karimov, Faxri Kamol kabi fan olamida chuqur iz qoldirganolimlar bor edi.

O.Hoshim Fitratning “O‘zbek adabiyotidan namunalar” xrestomatiyasi-majmuasiga 1928 yil “So‘z boshi” yozadi. Buning uchun J.Boybo‘latov Fitratni ham: O.Hoshimni ham qattiq tanqid qilgan. Holbuki, “So‘z boshi”da “eski madaniy merosni yaxshi bilish, buning uchun undan yaroqli kerakli-kerakli joylarini olib to‘plash va to‘plaganlari ustida ishlash-mana bu proletar adabiyoti, proletar madaniyatini tuzish uchun asosdir”-deb yozilgan edi.

J.Boybo‘latov esa “O‘zbek adabiyoti va chig‘atoychlik” maqolasida “O.Hoshimov o‘zbek proletar adabiyotining poydevori uchun materialni chig‘atoy formasidan oladi”,-deb uni inglislarcha so‘kadi. J.Boybo‘latov hatto Alisher Navoiyni ham mistik shoir deb e‘lon qilgan edi. Bunday qarashlarga zarba bermasdan turib, yangi madaniyatni barpo etish va rivojlantirish haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas edi. Bu vazifani O.Hoshim sharaf bilan bajardi. U “Proletariat va chig‘atoy adabiyoti” (1928), “Proletariat adabiyoti va adabiy meros” (1929), “Adabiy meros va chig‘atoy adabiyoti” kabi maqolalar yozdi va ularning hammasida o‘zbek xalqining boy merosini saqlab, uni xalqqa qaytarish uchun kurashdi. U J.Boybo‘latov maqolalari “ilmiy bir maqola emas, balki qo‘pol bir feletondir”,- deydi. Munozara jarayonida mumtoz adabiyotni baholada avval yo‘l qo‘ygan xatolarni tuzatishga harakat qilib, “Chig‘atoy adabiyoti ko‘p badiiy namunalar bergandir, bu adabiyotning bir qancha sana’tkor shoirlari bor”ligini e‘tirof qiladi.

O.Hoshim ko‘pgina maqolalarida mustaqil fikrlashga intilgan bo‘lsa-da, o‘sha davrning hukmron qoliplarini yorib chiqib ketolmagan. Ayniqsa, sana’t va adabiyotni baholashdagi bosh me‘yor masalasida O.Hshim to‘laligicha o‘sha davr dogmatlarining ta’sirida edi. Masalan, “Sho‘ro adabiyotining bir necha ijodiy masalalari” degan risolasida o‘zbek she’riyatida peyzaj tasvirining “sinfiy” shunday ochadi. “O‘zbek sho‘ro yozuvchi-shoirlari o‘z asarlaridan tabiat ko‘rinishlariga xursandchilik bilan qaraydilar, qarashlari, hislari, tuyg‘ulari, masalan Cho‘lponda bo‘lganidek, badbinlik, qayg‘u bilan sug‘orilmagandir”.

Ko‘ramizki, O.Hoshim Cho‘lpon ijodini baholashda o‘sha qolipdan kelib chiqib xato xulosalar chqaradi. Aslida, u Cho‘lpon shaxsiyatiga, ijodiga chuqur ehtirom bilan qaraganligini zamondoshlari xotirasidan bilib olish mumkin.

O.Hoshimovning “O‘zbek adabiyotining bir necha asosiy ijodiy masalalari” degan asari bo‘ldi. Bu maqola o‘zbek va rus tillarida alohida nashr etildi. Unda voqelik, xalq hayoti bilan mustahkam aloqada bo‘lish adabiyotning o‘rish garovi ekanligi ta’kidlandi. Shu asosda o‘zbek shoirlari erishgan yutuqlar va turmush hodisalarini yuzaki, jo‘n aks ettirish natijasida kelib chiqqan holda kamchiliklarni ko‘rsatib berdi. U o‘zbek shoirlaridan Oybek, G‘ayratiy, H.Olimjon, Uyg‘un va boshqalarning o‘ziga xos yo‘lini, ijodiy takomilini va mahoratini, ba’zi individual xususiyatlarini asosab ko‘rsatdi.

30-yillarda O.Hoshim ijodi yanada rivojlandi. O‘zbek adabiy tanqidchiligida vulgar sotsiologizmga qarshi dastlabki kuchli zarbani O.Hoshim berdi, buni uning qalamiga mansub “O‘zbek sho‘ro adabiyotining bir necha ijodiy masalalari” (1932) risolasida ko‘rish mumkin.

Risolaga hozirgi kun nuqtai nazaridan qarasak, unda sana’t va adabiyotni sotsializm qurilishi bilan bog‘liqlikda tekshirilgani va patriya adabiyotining sinfiy bo‘lishiga oid qarashlari eskirganligi ayonlashadi.

Shunga qaramay, mazkur risola 30-yillar badiiy tafakkurini chuqulashtirish ishiga so‘zsiz juda katta hissa qo‘sha oladi.

U 1937 yilda Pushkin vafotining 100 yilligini nishonlash ishlariga qatnashdi, “Evgenin Onegin” romanining Obek tomonidan qilingan tarjimasiga muharrir bo‘ldi va tarjimon mahoratini, yutuq va kamchiiklarini tahlil qilib kattgina maqola yozdi.

O.Hoshim yosh bo‘lishiga qaramay, O‘zbekiston Fanlar Komitetining raisi, til va adabiyot instituti direktori sifatida falsafa (baxtga qarshi buning ichida markscha-lenincha falsafa ham bor edi), adabiyotshunoslik, tilshunoslik, folklorshunoslik va tarix sohalariga bevesta rahbarlik qilgan va o‘sha vaqtdayoq qomusiy bilm sohibi sifatida tanilgan va katta ishlarni amalga oshirgan edi.

Umuman, O.Hoshimning faoliyati 20-yillarning ikkinchi yarmi va 30-yillarning birinchi yarimida kechdi. U shu yillardagi o‘zbek madaniyati va adabiyotshunoslik ilmining yuksalishida ko‘zga ko‘rinarli o‘rinni egallaydi, uning

ilmiy asarlari o'zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligining taraqqiyotidagi ma'lum bir bosqichni aks ettiradi.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Sharafiddinov O, Cho'lpon, Otajon Hoshim, Mustafu Chuqay. "Istiqlol fidoyilari", -T.: 1993 yil
  2. Turdiev Sh, Otajon Hoshimov. UTA, 1990
  3. Karimov N. Ikki darg'a. "Guliston", 1990 yil, 3-son.
- O. Safarov va boshqalar

### **7-mavzu. Izzat Sulton hayoti va ijodi.**

Reja.

1. Izzat Sulton yirik nazariyotchi olim.
2. Olimning adabiy merosga oid kuzatishlari.
3. Zamonaviy adabiyot va Izzat Sulton ijodi.
4. Izzat Sulton ilmiy izlanishlarida realizm muammolari.

Tayanch so'zlar: adabiyot nazariyasi, nazariyotchi olim, munaqqid, Navoiy ijodi talqini, realistik asar, realistik proza, dramaturgiya, etto, kino dramaturgiya, kinofilm, stsenariy, hayot va adabiyot, Qodiriy ijodi, jadidizm, tanqidiy realizm, sotsialistik realizm, realizmning zamonaviyligi, romantizm, ijodiy metod.

Yirik adabiyotshunos olim, mashhur dramaturg, o'zbek fani va madaniyatning atoqli namoyandasi-Izzat Sulton (Izzat Otaxonovich Sultonov) ilm ahli, adabiy jamoatchilik uchun g'oyatda qadrli edi. U o'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, fiologiya fanlari doktori, professor, Beruniy nomidagi respublika Davlat mukofotining laureati, o'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sana't arbobi Izzat Sultonning o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixida alohida o'rni bor.

Izzat Sultonov 1910 yili 10 iyunda O'sh shahrida hunarmand oilasida dunyoga keldi. 10 yoshligidayoq otasi vafot qilib, etim qoldi. Keyinchalik bolalar uyida tarbiya topdi. 1924 yili ko'pgina etim bolalar Toshkentga o'qishga yuboriladi. Bular orasida yosh Izzat ham bor edi. Avval musiqa maktabida, so'ngira bilim yurtida tahsil ko'rdi. 1929 yili uni bitirgach, Yangiyo'l tumanining Qovunchi

qishlog'ida o'qituvchi bo'lib ishga boradi. 1930 yili SAGU qoshidagi ijtimoiy fanlar fakultetiga o'qishga o'tadi. 1931 yildan gazetalarda mas'ul kotib, mudirlik qiladi. Ayni vaqtda O'zbekiston Fanlar akademiyasining aspiranturasiga kirib, uni 1937 yili tamomlab chiqadi. U 1938 yili O'zbekiston Fanlar komitetining Til va adabiyot instituti direktorining o'rinbosari, 1939 yildan boshlab, shu institutdagi Alisher Navoiy bo'limining mudiri lavozimlarida ishlaydi. Urush yillarida gazetada, keyinchalik esa Toshkent kinostudiyasida xizmat qiladi. 1943 yilda esa shu studiyaga direktor etib tayinlanadi. 1945 yildan boshlab O'zbekiston Ministirlar Soveti raisining o'rinbosari bo'lib ishlaydi. 1948 yildan boshlab hozirgi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutiga direktorlik qiladi. 1950 yil doktoranturaga o'qishga kiradi, bir muddat Moskvada universitetda kafedrada ishlaydi. Toshkentga kelgach, 1955 yili Til va adabiyot institutida o'zbek adabiyoti sektoriga rahbarlik qildi. U samarali ilmiy va jamoatchilik faoliyati uchun bir necha marta orden va medallar bilan taqdirlangan.

Izzat Sultonov o'zbek adabiyoti tarixining ulkan tadqiqotchilaridan biri hisoblanadi. Uning ijodida va ilmiy faoliyatida Alisher Navoiy alohida o'rin tutadi. Izzat Sulton hassos navoiyshunosdir. Bu borada olimning birinchi maqolasi "Mir Alisher Navoiy" 1938 yili bosilib chiqdi. Xuddi shu yili tadqiqotchining "Rustaveli va Navoiy" maqolasi vujudga keldi.

Navoiyshunoslikka qo'shilgan eng muhim hissasidan biri-olimning "Mezonul-avzon" va uning tanqidiy teksti" nomli ishidir. Xuddi shu mavzuda tadqiqotchi 1949 yili nomzodlik dissertasiyatsini yoqladi.

Shundan keyin ham I.Sultonov A.Navoiy ijodi ustida muttasil ish olib bordi. Uzoq va ko'p yillik ijodiy izlanishlar samarasi sifatida "Navoiyning qalb daftari" nomli yirik asari vujudga keldi.

Hali o'ttiz yoshga to'lmagan Izzat Sultonov "Adabiyot nazariyasi"ni yaratishga o'zida ma'naviy ehtiyoj sezdi va katta jasorat bilan bu ishga kirishdi. Kitob 1939 yili chop etildi. Yosh olimning birinchi bu yirik asari O'zbekiston madaniy-adabiy hayotida ulkan voqea bo'ldi. Darslik 1940 yilda eng yaxshi ilmiy va badiiy asarlar uchun o'tkazilgan tanlovda birinchi mukofot bilan taqdirlandi.

“Adabiyot nazariyasi” darsligi Izzat Sultonning haqiqiy nazariyachi olim ekanligini namoyish qildi. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida Izzat Sulton rahbarligida, bevosita ishtirokida ikki jildlik “Adabiyot nazariyasi” tadqiqot kitobining yaratilishi ham jiddiy voqealardan sanaladi.

Izzat Sultonning adabiy tanqidchilikdagi ilmiy-nazariy muammolarning hal etilishida “Ikki muhim masala yuzasidan mulohazalar” degan maqolasi salmoqli o‘rin tutadi. Maqolada 20-asr o‘zbek adabiyotining shakllanishidagi hal etuvchi omillar haqida bahs yuritiladi.

Izzat Sultonning 1962 yilda “Hayot va adabiyot” maqolasi e‘lon qilindi. Unda 50-yillar oxiri va 60-yillar boshlarida yozilgan va keng jamoatchilik tomonidan e‘tirof etilgan asarlar tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada adabiy tanqid taraqqiyotiga ham baho beriladi. Aytish mumkinki, mazkur adabiy tanqidiy maqola 60-yillar adabiy jrayonida sezillarli iz qodirgan edi.

I.Sulton 60-yillar tanqidchiligida keng rivojlanayotgan muhim bir ijobiy fazilatga e‘tiborni qaratdi. Bu tanqidchilar tomonidan mahorat masalalariga e‘tiborning oshuvi, monografik tadqiqotlarning ko‘plab yaratila boshlanganligi e‘tirofida yaqqol ko‘rinadi. I.Sulton bu sohada ham erishilayotgan yutuqlar bilan birga jiddiy kamchiliklar mavjud ekanligini o‘z vaqtida ko‘ra oldi.

Ma‘lumki, 50-yillarning ikkinchi yarmida stalincha qatag‘onga uchragan yozuvchilar reabilitatsiya qilindi, ular ijodiga berilgan oldingi baholar bir tamonlama va xato ekanligi yaqqol sezilib qoldi. Shuning uchun ham endilikda Cho‘lpon, Fitrat, A.Qodiriy kabi zabardast yozuvchilar ijodini qayta va haqqoniy baholash zaruriyatga aylandi. Bu masalaga Izzat Sulton birinchilardan bo‘lib ishga kirishdi. Munaqqid 1956 yil oktyabr oyida “Sovet O‘zbekistoni” va “Pravda Vostoka” gazetalarida A.Qodiriy haqida maqolalar e‘lon ettirdi. O‘shanda, ayniqsa, “Pravda Vostoka” gazetasining 1956 yil 28 oktyabr sonida bosilib chiqqan “Talantli o‘zbek sovet yozuvchisi Abdulla Qodiriy” degan maqolasi katta voqea bo‘lgan.

Izzat Sulton Abdulla Qodiriy haqidagi 1956 yilda yozgan maqolasi va “O‘tkan kunlar” yangi nashirdagi so‘z boshisidan keyin ham adib ijodiga doir



izlanishlarini yanada davom ettirib, 1962 yilda “Abdulla Qodiriy” ilmiy tadqiqotini yaratdi. Bu tadqiqot uning A.Qodiriy haqidagi adabiy-tanqidiy maqolasi oldingi qarashlardan keskin farq qiladi. Bunda u “O’tkan knlar” romaning so’zboshisidagi o’ta tanqidiy fikrlaridan ma’lum darajada chekinadi hamda A.Qodiriy ijodini har tamonlama va keng qamrovli tadqiq qilishga intiladi.

I.Sulton A.Qodiriy ijodiga u reabilitatsiya qilingandan so’ng eng odilona va to’g’ri yondoshgan munaqidlardan biridir. Ayniqsa, uning romanning ijodiy metodi haqidagi fikrlari nihoyatda adolatli va ko’pgina qodiriyshunos olimlarning fikridan ko’ra haqqoniyroq ekanligi mustaqillik va istiqlol sharofati bilan yanada oydinlashdi. I.Sulton A.Qodiriy ijodining asosini realizm tashkil etishi va hatto uning asarlarida uchraydigan yuksak romantizm kayfiyatlari ham uning ijodidagi realizmning yanada chuqurlashuviga xizmat qilganligini adolat bilan ko’ra oldi.

Izzat Sultonning “Realizmning zamonaviyligi” maqolasi 60-yillar badiiy adabiyotida yuz berayotgan realizmning chuqurlashuvchi va kengayayotgan adabiy hamkorlikning asosiy belgilarini, yutuq va kamchiliklarini umumittifoq adabiy jarayoni bilan qiyoslab o’rganish va bu sohda echimini kutayotgan ilmiy-nazariy muammolarni hal etishda, ayniqsa, tanqidiy realizm masalalariga aniqlik kiritishda o’z o’rniga ega bo’ldi. Izzat Sultonning “Ulug’ yo’l”ning ba’zi xosiyatlari” (1967), “Izlanishlar davom etadi” (1970) degan adabiy-tanqidiy maqolalari ham o’zbek adabiy tanqidi tarixi bosib o’tgan o’ziga xos yo’lni umumlashtiruvchi xususiyatga ega bo’ldi. Izzat Sulton mazkur maqolalarida 60-70-yillar badiiy adabiyoti va tanqidchiligi katta muvaffaqiyatlarga erishganligi haqida fikr yuritarkan, eng avvalo, janrlar taraqqiyotidagi muvaffaqiyatlarni qayd etadi.

Mustaqil o’qish uchun adabiyotlar:

- 1.Shokirov U, Izzat Sulton. Adabiy portret. T: FAN. 1970
- 2.Safarov O. va boshqalar
- 3.Sharafiddinov O. Go’zallik izlab. FAN. 1980

## **8-mavzu. Xomil Yoqubov hayoti va ijodi.**

Reja.

1.Xomil Yoqubov etuk munaqqid sifatida.

2.Xomil Yoqubov Oybekshunos olim.

3.Xomil Yoqubov F.Fulom ijodining yirik tadqiqotchisi

4.Xomil Yoqubovning XX asr uzbek adabiyoti tarixini yaratishdagi xizmatlari.

Tayanch so'zlar: zamonaviylik va mahorat, g'oyaviy yuksaklik va badiiy mukammallik, lirikada konflikt muammolari, F.Fulomning poetik mahorati, Oybek lirikasi, nazariy-estetik qarashlar.

Filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi Respublika davlat mukofati laureati H.Yoqubov o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi ravnaqiga munosib hissa qo'sha olgan zabardast olim edi. 1907 yili Toshkent shahrida tug'ilib, dastlab Alisher Navoiy nomidagi pedagogika texnikumida, undan so'ng O'rta Osiyo davlat universitetining iqtisod fakultetida tahsil olgan esada, respublika oliy o'quv yurtlarida o'zbek adabiyotidan dars berdi. Shu faoliyati tufayli 1944-47 yillarda Sankt-Peturburdagi Sharqshunoslik instituti aspiranturasida o'qib, Turdi ijodi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

1948 yilda umrining oxirigacha O'zFA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim va bo'lim mudiri lavozimlarida ishladi. U realistik o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligining shakllanishi va taraqqiy topishini ta'minlashda, ilmiy-estetik tafakkur rivojida so'nggi nafasigacha hormay xizmat qildi.

Homil Yoqubovning adabiy tanqidchilik faoliyati 30-yillardan boshlangandi. Uning birinchi taqrizi Oybekning ilk she'rlar to'plami-"Ko'ngil naylari"ga yozgan "Oybek va uning she'rlari" deb nomlangan bo'lib, 1929 yilda bosilib chiqqan edi. 1932 yil G'ofur G'ulomning hikoyalar to'plamiga yozgan taqrizi bosildi. Bu taqrizlar H.Yoqubovning bu ijodkorlarga xos bo'lgan jihatlarini to'g'ri ko'ra olishi va ularni birinchilardan bo'lib maxsus ta'kidlashi bilan xarakterlidir.

40-yillardan boshlab Homil Yoqubov ilmiy faoliyatida o'zbek adabiyoti, uning taniqli namoyandalari ijodi, adabiyot janrlari va xilma-xil muammolarni

tekshirishini davom ettirish va eng muhimi-mumtoz adabiyotni, uning atoqli vakillari va muhim sohalarini o'rganish, ilmiy tadqiqot ishlari olib borish favqulodda muhim o'rin oldi. Navqiron olimning tadqiqot ob'ektlari tobara kengayib va ilmiy saviyasi kuchayib bordi. Buni tasavvur etish uchun uning Bobur va Turdi hayoti va ijodi haqidagi ishlarini eslashning o'zi kifoya.

H.Yoqubov 1944 yili Leningraddagi Sharqshunoslik instituti aspiranturasiga o'qishga kirdi. Mashhur professor A.K.Borovkov ilmiy rahbarligida "Turdi va uning adabiy muhiti" mavzusida tadqiqot ishi olib bordi. Tadqiqotchi shoir Turdi ijodiyoti haqida dissertatsiya yozish bilan bir vaqtda o'zbek adabiyoti, uning atoqli vakillari ijodi to'g'risida ham jiddiy mehnat qildi. Birgina misol: "Abdulla Qahhor novellalari" nomli katta maqolasi 1946 yili bosilib chiqdi. 1947 yili u Turdi va uning adabiy muhiti haqidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Homil Yoqubov G'.G'ulom ijodiga katta e'tibor bilan qradi. Buni 30-yillarning o'rtalarida yaratgan "G'ofur G'ulom ijodiyoti" nomli ishi bilan 50-yillarning boshlarida bosilib chiqqan "G'ofur G'ulom haqida tanqidiy-biografik ocherk" (1953) asarini qiyoslash orqali ham yaqqol tasavvur etish mumkin. Har ikkala ish ham vujudga kelgan paytda muhim voqea bo'ldi. Taniqli shoir G'ofur G'ulom olim ko'z o'ngida yuksalib bordi va shuhrat topdi. Tanqidchi salkam yigirma yil ichida shoir ijodida bo'lgan ulkan o'zgarishlarni sinchkovlik bilan kuzatib bodi va ularni kuchli ehtiros bilan o'z maqolalarida ko'rsatishni davom ettirdi. Nihoyat, G'.G'ulom hayoti va ijodiyoti haqida o'zbek adabiyotshunosligida birinchi ilmiy tadqiqot xarakteridagi salmoqli ish vujudga keldi. 1959 yili esa "G'ofur G'ulom hayoti va ijodi" nomi bilan uning yirik monografiyasi chop etildi. 1970 yili bosilib chiqqan "Adabiy maqolalar" nomli yirik asarining bir bobi "G'ofur G'ulom" deb ataladi.

1950-1970 yillar mobaynidagi H.Yoqubov ilmiy faoliyatida atoqli shoir va ulkan adib Oybek ijodini keng yo'sinda tadqiq etish markaziy o'rinlardan birini tashkil etdi. 20-yillarning oxirlarida maqola, taqrizlar yoza boshlagan H.Yoqubov 30-yillarda bu boradagi ishlarini muayyan darajada davom ettirdi. 40-yillarning oxirlariga kelib Oybek ijodi haqida jiddiy ishlar olib borishga faol kirishib ketdi.

Buning natijasi o'laroq "Yozuvchi Oybek", "Oybek", "Oybek prozasida badiiy tasvir" kabi o'nlab qator maqolalarivujudga keldi. Uzoq yillar mobaynida olib borilgan ishlarning yakuni bo'lib, 1955 yilda olimning "Oybek Tanqidiy-biografik ocherk" nomli kitobi chop etildi. Bu ish o'zbek adabiyotshunosigida katta voqea bo'ldi.

1959 yili olimning Oybek haqida monografiyasi bosilib chiqdi. Bu faqat olim ijodidagina emas, o'zbek adabiyotshunosligining xam printsiptial yutug'i bo'ldi. Nihoyat, bu boradagi ishlarning ulkan yakuni sifatida "Oybek lirikasida g'oyaviylik va mahorat" (1963), "Adibning mahorati" (1966) nomli kitoblari yaratildi. Bu asarlar uchun olimga 1966 yili filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi berildi.

H.Yoqubovning "Lirikada konflikt", "Adabiy merosimizni chuqur o'rganaylik", "Lirikada zamondoshimiz nafasi", "Haqiqiy novatorlik uchun", "Tanqid va adabiyotshunoslik tarixiga bir nazar", "Navoiy va o'zbek sovet adabiyoti", "Tipik sharoit va tipik xarakter" kabi muammoli ilmiy-tadqiqotlarida munaqqidning o'ziga xos individual uslubi va mahorat qirralari bo'rtib turadi. H.Yoqubov mazkur maqolalarida o'zi qo'l urgan mavzularning yangi tomonlarini kashf qilib ilmiy-nazariy izlanishlar qilarkan, badiiy ijoddagi har qanday dabdababozlik, madhiyabozlik va ko'zbo'yamachiliklarga qarshi chuqur ilmiylik bilan bosiqlik asosida murosasiz kurash olib bordi.

H.Yoqubovning adabiy-tanqidiy qarashlari o'zining nazariy va estetik asoslarini qanday mustahkamlab borish yo'lini umumlashtiruvchi xususiyatlari va o'ziga xos ilmiy akademizmga sug'orilgan individual uslubning namayon bo'lishi bilan alohida ajralib turadi.

H.Yoqubov faqat olim va atoqli tanqidchigina emas, ayni vaqtda murabbiy hamdir. U ko'p yillar mobaynida oliy o'quv yurtlarida adabiyotdan dars berdi. Olim bir qancha darsliklar, majmualar, o'quv dasturlarining muallifidir. U 30-yillardan 90-yillarga qadar bu faoliyatini davom ettirdi. U ikki tomlik "O'zbek sovet adabiyoti tarixi ocherklari" (1961-1962), "Istoriya uzbekskoy sovetskoy literaturi" (1967), uch tomlik "O'zbek sovet adabiyoti tarixi" (1968-1972) nomli yirik ishlarning vujudga kelishida jonbozlik ko'rsatdi. H.Yoqubov 1967 yili Beruniy

nomidagi respublika Davlat mukofati laureati bo'ldi. 1968 yili esa "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" degan yuksak unvon bilan taqdirlandi. Ustoz olim umrining oxirigacha adabiyotshunoslikda mukammal ishlar qilishning ajoyib namunasini ko'rsatib keldi.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Safarov O. va boshqalar
2. Yoqubov X. Saylanma, ikki jildlik. FASN 1983 yil

### **9-mavzu. M.Qo'shjonov hayoti va ijodi.**

Reja.

1. M.Qo'shjonov - nazariyotchi olim va etuk munaqqid.
2. M.Qo'shjonov Qodiriyshunos olim sifatida.
3. M.Qo'shjonovning Oybek ijodiga oid tadqiqotlari.
4. Adabiy jarayon va M.Qo'shjonov

Tayanch so'zlar: nazariyotchi olim, etuk munaqqid, Qodiriyshunoslik, tasvirlash san'ati, Oybekshunos olim, tip yaratish, xarakter va sharoit, syujet va kompozitsiya, ijod saboqlari, badiiy mahorat, ochiq xat janri, psixologik tahlil qirralari, analitik tahlil, tahlil va talqin, estetik talqin, go'zallik va fojeaviylik, sir saqlash san'ati.

Atoqli tanqidchi va adabiyotshunos olim O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofotining laureati, filologiya fanlari doktori, professor Matyoqub Qo'shjonov o'zbek tanqidchiligida ilmiy muhokamasi, fikrni ifodalash uslubi, tili jihatidan o'ziga xos individual xususiyatlarga ega ijodkordir. U V.Belinskiy, N.Chernishevskiy, A.Dobrolyubov singari rus tanqidchiligining daholari estetik tamoillarini ijodiy o'zlashtirib, o'ziga xos sharoitda, o'zbek adabiyoti materiallari asosida davom ettirgan ijodkor-munaqqiddir.

Matyoqub Qo'shjonov Turkmanistonning Toshovuz rayonidagi Jallang qishlog'ida 1918 yil, 5 mayda oddiy cho'pon oilasida tug'ilgan. To'liqsiz o'rta ma'lumot olgandan so'ng Chorjo'ydagi o'qituvchilar tayyorlash texnikumi sari yo'l oladi. Bilim yurtini tamomlagach, 1942 yilgacha Toshovuz oblastidagi o'rta maktablarning birida o'zbek tili va adabiyotidan dars beradi.

1942-1943 yillar mobaynida ikkinchi jahon urushida qatnashib, turli orden va medallar bilan mukofatlanadi. 1946 yili O'rta Osiyo davlat universitetining filologiya fakultetiga kiradi, uni imtiyozli diplom bilan tugatgach, 1950-1953 yillar mobaynida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetida instruktor lavzimida ishladi. Ayni vaqtda, O'rta Osiyo davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetida talabalarga ma'ruzalar o'qidi. 1953 yili Moskvadagi Ijtimoiy Fanlar akademiyasiga o'qishga tavsiya etiladi. O'qish davomida u o'z qobiliyati va fikrlash doirasining kengligi bilan tengqurlari orasida ajralib turardi.

O'zbek tanqidchilari orasida Abdulla Qodiriyning yozuvchilik san'ati, mahoratining o'ziga xos qirralarini ilk bor ochish baxti ham Matyoqub Qo'shjonovga nasib etdi. Abdulla Qodiriyning xarakter yaratish mahorati, xarakterning shakllanish jarayonini ko'rsatishdagi "sir saqlash" san'atini birinchi bo'lib Matyoqub Qo'shjonov ko'ra oldi. Tadqiqotda A.Qodiriyning Oybek, A.Qahhor ijodiga xos bo'lmagan "voqealarni sirli bayon etish" san'atini ko'rsatishga keng o'rin berilgan. Zotan voqealarni sirli bayon etish yozuvchiga qahramon ruhiy olamini ochishda asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Adabiyotshunos A.Qodiriy badiiy mahoratining qirralarini ("sir saqlash", "perepitiya, ichki va tashqi kolliziyalar birligi, antiteza") asardagi asosiy obrazlar-Otabek va Kumsh xakteri orqali ochishga intiladi. Haqiqatdan ham, romandagi Otabek va Kumush xakteri voqealarni bir-biriga bog'lovchi, asar syujetini harakatlantiruvchi asosiy kuch. Buni muallifning asar muqaddimasidagi ushbu so'zlar ham tasdiq etadi: "Romanning bosh g'oyasi asosan etakchi obrazlarda ifodalangani uchun bu obrazlarning yaratilishi to'g'risida ko'proq to'xtashfoydalidir. Chunki bu masala yozuvchi san'atining belgilovchi asosiy omillardandir"<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> +ЫШЖОНОВ М. Ўзбекнинг Ўзлиги. Тошкент. 1994, 8-бет.

“Abdulla Qodiriyning tasvirlash san’ati” kitobini tanqidchi mustaqillik yillarida qaytadan nazardan o’tkazib, “O’zbekning o’zligi” nomi bilan nashr ettirdi. Romanning tekshirishda munaqqid tarixiylik tamoyillariga qat’iy amal qiladi va o’z fikrlarini istiqbol mafkurasiga asoslangan holda bayon etadi. Bu asar mustaqillik ruhi bilan sug’orilganligi, A.Qodiriy ijodining bugungi zamonamiz uchun ahamiyatli jihatlariga e’tibor berganligi bilan diqqatga sazovordir. Kitob ehtiros bilan yozilgan va kitobxonga qimmatli ma’riy oziq beradi, unga estetik zavq bag’ishlay oladi.

Matyoqub Qo’shjonov Oybek ijodini, uning mahorat sirlarini o’rganish borasda juda ko’p mehnat qildi. Tanqidchida chuqur ilm, o’tkir did va tahlil san’atini talab etgan bu murakkab va sharaflı ish zoe ketmadi. “Oybek mahorati”ning yaratilishi oybekshunoslikni yanada yuqori bosqichga olib chiqdi, deb ayta bo’ladi. Oybekshunoslikning yangi bosqichga ko’tarilishi ayni vaqtda, umuman, o’zbek adabiyotshunosligining yangi bosqichga ko’tarilayotganidan darak beradi. Bu kitobda ham tahlil markazida xarakter masalasi turadi. “Oybek mahorati”ning Oybek haqidagi boshqa tadqiqotlardan ajralib turadigan o’ziga hos fazilatlaridan biri ham shunda.

Bugungi qahhorshunoslikni Matyoqub Qo’shjonov ijodisiz tasavvur etish qiyin. U Abdulla Qahhor haqidagi tadqiqotlarida adibning barcha asarlari, estetik tamoyillari keng planda, yangicha fikrlar bilan yangicha uslubda tahlil qilmoqda. bu hol A.Qahhorning ijodiy individualligini, ya’ni A.Qodiriy, Oybek va boshqa yirik nosirlarimiz ijodidan farq qiladigan qirralarini kitobxonga to’laraq gavdalandirish imkonini bermogda.

“Adashganlar fojeasi” deb atalgan monografik tadqiqot A.Qahhor ijodini, mahorat sirlarini o’rganish yo’lidagi jiddiy tadqiqotdir.

1968 yili M.Qo’shjonovning “Mahorat sirlari” nomli kitobi bosilib chiqdi. Bu asrda A.Qahhorning katta epik asarlari yuksak did bilan tahlil qilindi. 1970 yili esa bu adib haqida “Hayot va nafosat” kitobi chop etildi. Bu asarida olim adibning hikoyanavislik san’ati va dramatik asrlarini chuqur tahlil etadi. “Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor” asarida esa yozuvchining hajviy mahoratini tadqiq etadi. Bu hildagi ilmiy ishlarning fazilatlaridan biri o’zbek adabiyoti vakillarining

o'ziga hos ijodiy individualligini va orginal qiyofasini ayrim holda yoritish imkonini beradi.

Keyingi yillarda M.Qo'shjonov Oybek, Sh.Rashidov, A.Qodiriy, A.Qahhor, I.Sultonov, H.G'ulom, Y.Shamsharov, Sh.Alyadin, R.Bekniyoz kabi yozuvchilar mahoratini o'rganish asosida adabiy portret janirida asarlar yaratishga ko'proq e'tibor berdi. Uning A.Oripov, Sh.Xolmirzaev, O.Muxtorlar haqida yozganlarini o'qiganimizda, yozuchilarning asrlarini o'qiganday ta'sirlanamiz, badiiy zavq olamiz.

M.Qo'shjonov ko'pdan beri bolalar adabiyotini o'rgnaish bilan qiziqib kelgan. Uning Q.Muhammadiy, Q.Hikmat, H.Po'lat ijodiga bag'ishlagan adabiy portretlari o'zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa bo'lib qo'shildi. O'zbek bolalar she'riyatining kamolatiga salmoqli hissa qo'shgan va o'ziga xos maktab yaratgan Q.Muhammadiy, yorqin talanti bilan bolalarning sevimli shoiri bo'lib qolgan Qudrat Hikmatning adabiy portretlarini yaratar ekan, olim o'ziga xos yo'ldan boradi. Ikki shoir ijodida ko'pchilikka noma'lum bo'lgan "sir"larini kashf etadi.

Jasoratli munaqqid va adabiyotshunos olimning "Ma'no va mezon" (1974), "Mahorat va badiiyat" (1977), rus tilidagi "Talent qirralari" (1975), "Oybek" (1976), "Mahorat ma'suliyati" (1977) nomli kitoblari ham hozirgi o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligining printsiplari yutuqlari bo'lib qoldi.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

- 1.Qo'shjonov M. "O'zbekning o'zligi", -T.: "Meros", 1994 yil
- 2.Qo'shjonov M, Milliev S. Abdulla Oripov. -T.: Ma'naviyat", 2004
- 3.O'taev U. Tanqid va uslub. -T.: "Fan". 1978 yil
- 4.A.Rasulov. Tanqid Talqin. Baholash. -T: "Fan", 2000

## **10-mavzu. O. Sharafiddinov hayoti va ijodi.**

Reja.

- 1.Ozod Sharafiddinov buyuk munaqqid sifatida.
- 2.60-90 yillar adabiy jarayonida O.Sharafiddinovning o'rni.



3.O'zbek she'riyatining tolmas talqinchisi.

4.Munaqqidning adabiy portret janriga qo'shgan hissasi.

5.O.Sharafiddinov mohir Cho'lponshunos.

6.O.Sharafiddinov - Qahhorshunos olim.

Tayanch tushunchalar: she'rshunos olim va munaqqid, Qahhorshunoslik, Cho'lponshunoslik, iste'dod qirralari kashfiyotchisi, zamonaviylik va she'riyat, badiiy uslub, tanqidchi mahorati, badiiylik mezonlari, she'riy til muammolari, tanqidchilik tamoyillari, tanqidchilik tarjimai, adabiy suhbatlar, adabiy etyudlar.

O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiliging taraqqiyotida, tarkib topishi va kamolotida A.Sa'diy va Olim Sharafuddinov, Otajon Hoshim va Sotti Husayn, Izzat Sultonov va Homil Yoqubov, Hodi Zaripov va G'ulom Karimov, Matyoqub Qo'shjonov kabi yirik siymolar qatorida professor, Beruniy nomidagi Davlat mukofoti laureati, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinovning ham xizmati beqiyos katta.

O.Sharafiddinov 1929 yili Toshkentda xizmatchi oilasida dunyoga keldi. 1936-46 yillar orasida o'rta maktabda o'qidi, yoshlikdan ziyrak va qobiliyatli bo'lgan Ozod maktabni oltin medal bilan tugatdi. 1946 yili o'rta Osiyo Davlat universitetining filologiya fakultetiga qabul qilindi va 1951 yili uni imtiyozli diplom bilan tugatdi. Shu yili M.Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti instituti aspiranturasiga kirdi va uni 1954 yili uni muvafaqqiyatli tugatdi. 1951-1954 yillar mobanida o'zbek poemalari ustida qunt bilan ijodiy ish olib bordi. Natijada u 1955 yili shu institut ilmiy kengashida "Hozirgi o'zbek sovet poemalari" degan mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Yosh olim 1955 yildan to 90-yillarga qadar o'zi tahsil olgan joyda-Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU) filologiya fakultetining o'zbek adabiyoti kafedrasida ishlab keldi. 90-yillarning boshlaridan e'tiboran dastlab "Sharq" ma'tbaa kontsernida bosh muharrir, so'ngira yangi tashkil etilgan "Jahon adabiyoti" bosh muharriri vazifasida ishladi.

1970 yili "Istoriya uzbekiskoe sovetskoe literaturi" nomli yirik asari uchun bir guruh adabiyotshunos olimlar qatori O.Sharafiddinov ham Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Mustaqillik yillarida olimning serqirra va qizg'in faoliyati munosib taqdirlandi. U xukumatimizning bir qancha orden va medallariga, 2000 yilda sa O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovar bo'ldi.

Tanqidchining ijodi 60-70 yillarda juda sermahsul bo'ldi. U o'zining adabiy tanqidiy qarasharida tanqidchilikning oldingi davrlardagi yutuq va kamchiliklariga nazar solar ekan, umumlashtirib, o'zining ilmiy biografik monografiyalari, adabiy portretlari, muammoli maqolari bilan adabiy tanqidchilik ko'lamini kengaytirdi. Tarixiylik va zamonaviylik muammolari ustida jiddiy va rang-barang ilmiy-nazariy fikrlar bayon etdi. A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, A.Qahhor ijodining yangicha talqinlarini yaratishga kirishib, adabiy merosga bir yoqlama qarash tamoyillariga qarshi kurash olib bordi.

Ma'lumki, 60-yillarga kelib, shaxsga sig'inish iskanjasidan ozod bo'lgan she'riyat va nasrda porillab ko'tarilishlar yuz bera boshlab, yuksak ijodkorlik ruhiyati maydonga keladi. O'zbek nazmida yuz bera yotgan bunday ijodiy o'zgarishlar Ozod Sharfiddinovning "Zamon. Qalb. Poeziya" mavzusidagi ilmiy kashfiyotlarga boy, o'zbek poeziyasining tarixi va ayni zamondagi yutuq va kamchiliklarini umumlashtiruvchi salmoqli kitobida o'z ifodasini topdi. Bu munaqqidning birichi yirik kitobi bo'lib, 1962 yili nashr etilgan edi. U o'zbek poeziyasida zamonaviy ruh chuqurlashib, badiiy mahorat ortib boryotgaligini, oldingi shablonlar va shtamplar o'rnini endilikda chinakam badiiylik va obrazlilik egallayotganligini o'z vaqtida payqay olgan edi.

Olimning keyingi kitobi- "Adabiy etyudlar" degan adabiy tanqidiy maqolalar to'plami 1968 yilda chop etilgan. Undan joy olgan maqolalar olim tahlilining chuqurligini, fikr diapazonining kengligini, adabiy hodisalarni teran va o'tkir kuzatishini, nihoyat fikr-mulohazalarini jo'shqin ehtiros bilan qiziqarli bayon qilganligini ochiq-oydin ko'rsatadi.

"Adabiy etyudlar"dagi maqolalarda tanqidchi A.Qahhor, Zufiya, M.Boboev, P.Qodirov asarlarini tahlil qiladi.

shunisi e'tiborliki, O.Sharafiddinov ijodida shn'riyat, nasr va adabiy tanqid muammolari birdek o'z ifodasni topib kelayotganligini uning "Go'zallik izlab"

kitobida ko'rish mumkin. Kitobdagi adabiy tanqidiy maqolalar uch bo'limda berilgan, birinchi bo'limda she'riyatga oid, ikkinchi bo'limda nasr haqidagi va uchinchi bo'limda adabiy tanqid muammolariga dolzarb masalar haqida fikr yuritiladi.

Ozod Sharafiddinovning "Talant xalq mulki" deb nomlagan kitobi 1979 yilda nashr etilgan bo'lib, u ikki qismdan iborat. Unda munaqqidning yoshlar ijodi haqidagi bir qator adabiy tanqidiy maqolalari, she'riyat rivojiga bag'ishlagan tadqiqotlari o'rin olgan.

Tanqidchi G'.G'ulom, Oybek, K.Yashin, S.Ayniy, A.Qahhor, A.Muxtor, O.Yoqubovlarning betakror portretlarini yaratar ekan, badiiy ijod bobida o'zining o'tkir ilmiy nazariy mulohazalarini o'rta tashlaydi.

1991 yilda O.Sharafiddinovning "Cho'lpon" nomli kitobi "Cho'lpon" nashriyotida "Shoir haqidagi rivoyatlar va haqiqatlar" tagsarloha qilib berildi. "Bu asar ulug' san'atkor haqidagi birinchi xayrixohlik bilan yozilgan ilmiy-tahliliy, ayni vaqtda ommaviy, bolalar bob asar edi. Kitob lo'nda-lo'nda besh bobdan –hayoti va ijod yo'li: she'riyati tahlili: nasrning talqini, adabiy tanqidiy faoliyatiga munosabat, tarjimonlik mahoratiga bir nazardan iborat"<sup>2</sup>

Shu kitobning birinchi bobi asosida keyinroq tanqidchi "Cho'lponni anglash" nomli nihoyatda teran va mazmunli asar yaratdi.

Adabiyotshunosligimiz va tanqidchiligimizda atoqli adib A.Qahhor haqida ko'plab tadqiqotlar, monografiyalar yaratilgan. P.Qodirov, I.Borolina, H.Abdusamatov, M.Qo'shjonov, U.Normatov, I.G'ofurov, R.Qo'chqorov hamda boshqa o'nlab tadqiqotchilarning ilmiy asarlarida A.Qahhor ijodi tahlil qilinadi. To'g'ri har bir adabiyotshunos o'z tanlagan adabiy tanqidiy janr talabi asosida, o'z uslubi yo'nalishiga ko'ra A.Qahhor asarlarini o'rganadi, yozuvchining adabiyotdagi o'rnini belgilashga intiladi. Ozod Sharafiddinov ham A.Qahhor ijodini o'rganishga alohida e'tibor beradi.

"Abdulla Qahhor" kitobida yozuvchi biografiyasiga, ota-onasi, oilasi, bolalariga oid ma'lumotlar bor. Asarda yozuvchining hayot yo'li, qiziqishlari, tabiati

---

<sup>2</sup> Расулов А.Истеъдод ва эътиод Тошкент. Шар= 2000,93-бет

haqidagi voqealar qiziqarli, sodda tilda tasvirlangan. “Sarob”, “Qo’shchinor” romanlarning muhokamalari haqida yangi mukammal ma’lumotlar berilgan. Bu kitob o’zbek qahhoshunosligiga qo’shilgan munosib hissadir.

Mustaqil o’qish uchun adabiyotlar:

- 1.Rasulov A. "O.Sharafiddinov" T.: 1979 yil
- 2.Rasulov A. "Iste’dod va e’tiqod", -T.: "Sharq", 2000
- 3.Rasulov A. "Talqin. Talqin. Baholash"
- 4.Qyljonov.A. "Ilm va ijod olamida", FAN T.: 1980

### **11-mavzu. Umarali Normatov hayoti va ijodi.**

Reja.

1. Umarali Normatov hozirjavob munaqqid sifatida.
2. Umarali Normatov ijodida nasr muammolari.
3. U marali Normatov Qodiriyshunos munaqqid sifatida.
4. Munaqqid ijodida adabiy jarayon muammolari.
5. Adabiy tanqid janrlari rivojida munaqqidning hissasi.

Tayanch tushunchalar: realizm, romantizm, absurd, taraqqiyot tamoyillari, go’zallik olamida, hikoyanavislik mahorati, faol va hozirjavob munaqqid, nasrimiz Ufqlari, Qodiriyshunoslik, modernizm va absurd adabiyoti, mustaqillik davri adabiyoti, yangicha badiiy tafakkur.

Mustaqil o’qish uchun adabiyotlar:

- 1.Sodiq S. "Umarali Normatov" -T.: 1990
- 2.Qo’shjonov M. "Qalb va qiyofa" -T.: Fan, 1978

### **12-mavzu. Naim Karimov hayoti va ijodi.**

Reja.

1. Naim Karimovning adabiy-estetik qarashlari.

2. Naim Karimov she'rshunos olim.
3. Naim Karimovning so'nggi davr izlanishlarida XX asr adabiyotini qayta baholash.
4. Munaqqidning tarixiy-biografik talqinga qo'shgan hissasi.
5. Adabiy jarayon va munaqqid ijodi.

Tayanch tushunchalar: nozikta'b munaqqid, she'riyat talqinchisi, H.Olimjonning poetik olami, "Ajoyib kishilar hayoti" turkumi, tarixiy-biografik asar, ma'rifiy roman, qatag'on qurbonlari, yangicha badiiy-estetik tafakkur.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Nazarov B. "Nozikta'b adabiyotshunos", "O'zbek tili va adabiyoti", 2002 yil, b-son.
2. Mamajonov S. "Teranlik", T: Fan, 1987
3. Safarov O. va boshqalar. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi, Buxoro, 2003 yil.

#### **14-mavzu: Salohiddin Mamajonov hayoti va ijod yo'li. (1931-2005).**

Reja:

1. S. Mamajonov hayoti va ijodi.
2. S. Mamajonov adabiy estetik qarashlari.
3. Munaqqid ijodida she'riyat talqini.
4. Munaqqidning istiqlol davri faoliyatining etakchi tamoyillari.

Tayanch tushunchalar:

Munaqqid ijodida 50-60-yillar tanqidchiligi tamoyillarining aks etishi. S. Mamajonov 50-yillarning o'rtalaridan tanqidchilikka kirib kelgan yangi qarashli novqiron avlodning o'ktam vakllaridan biri sifatida. Munaqqidning adabiy jarayondagi faolligi. S. Mamajonov G'afur G'ulom ijodini mukammal o'rgangan adabiyotshunos. Munaqqid ijodida adabiyotshunoslik va tanqidchilikning uyg'unligi. G'afur G'ulom ijodini o'rganishda mafkuraviy va estetik mezonlar mushtarakligi.

S.Mamajonov - Hamid Olimjon, Uyg'un, Sharof Rashidov, Zulfiya ijodining tadqiqotchisi. Munaqqid adiblar ijodini zamonaviylik nuqtai nazaridan o'rganganligi. "Uyg'un" (1965), "Shoir dunyosi" (1975), "G'ayraty" (1974), "Lirik olam epik ko'lam" (1979) kitoblari. Yozuvchi ijod yo'li, badiiy asarni talqin qilish, baholashda amal qilgan mezon va me'yorlar.

S.Mamajonov – yangi o'zbek adabiyoti tarixining serko'lam tadqiqotchisi. Uning "Ulug' Vatan urushi davrida o'zbek adabiyoti" (1975) kitobi, "O'zbek sovet adabiyoti tarixi" (1971), "Ko'pmillatli sovet adabiyoti tarixi" (1970) kollektiv asarlaridagi tadqiqotlari.

S.Mamajonov hamisha adabiy jarayonning oldingi safida bo'lganligi. "Ranglar va ohanglar" (1978), "She'riyat bahsida" (1970) kitoblarida yangi she'riyat va shoirlar haqida bildirgan fikrlari. Uning 60-yillardan 2000 yilgacha bo'lgan she'riyatga doir qarashlaridagi tadriji.

Munaqqidning bolalar adabiyoti muammolari haqidagi maqola va tadqiqotlari. Uning "Bolalar adabiyotida zamonaviylik va mahort masalalari" maqolasida, "Ezgu niyat yo'lida" (1978), "Ishonch va burch" (1982) kitoblarida bolalar adabiyoti, unga folklor ta'siri masalalari o'rganilganligi.

Olim ijodida "Hozirgi adabiy jarayonga bir nazar" asarining tutgan o'rni.

Salohiddin Mamajonovning adabiy tanqid metodologiyasi haqidagi nazariy qarashlari. Uning "Vohid Zohidov" (1976) adabiy portreti va munaqqid sifatidagi uslubi. Olimning adabiyotshunos mutaxassislarni tarbiyalashdagi hissasi.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

### **15-mavzu: G'oyaviy-badiiy izchillik va mahorat uchun kurash. (1960-1990)**

Reja.

1.Adabiy jarayondagi etakchi tamoyillar.

2.Adabiy tanqidda yozuvchi va kitobxon, badiiy asar va kitobxon muammolarining ilmiy-estetik talqini.

3.70-80 yillar tanqidchiligida yangicha ilmiy tafakkur tamoyillari.

Tayanch tushunchalar: adabiy tank, idning etakchi xususiyati, etakchi tamoyillar, talqin turlari, davr va tanqidiy qarashlar, badiiy asar takomilidagi o'rni, badiiy nochor asarlarga ta'siri.

Adabiy tanqidning siyosiy-mafkuraviy tobelikdan ozod bo'lish yo'llarini izlash va professional tanqid mahoratini oshirish tomon yuzlanishi. 20-50 yillarda kommunistik firqa adabiy tanqidni o'ziga tamoman bo'ysindirishga intilgan bo'lsa, 60-yillardan shu tazyiq doirasida faoliyat ko'rsatgan holda, imkon boricha badiiy adabiyot haqida uning ichki qonuniyatlari asosida fikr yuritishga intilish, asarning badiiy himmatiga qarab baho berish tamoyillari yildan yilga ko'zga tashlana borgani.

Sotsialistik realizm metodidagi inqirozning badiiy asarlardagi ilk ko'rinishlari. Bunday asar, ularning adabiy tanqidga va tanqidning bunday yo'nalishdagi asarlarga ko'rsatgan ta'siri. Roman janri istiqboli, sho'ro adabiyotida gumanizm va go'zallik muammosi xususidagi bahslar. qahramon muammosining tanqidchilikdagi yangi talqinlari.

Janrlar haqidagi bahslar. Yoshlar she'riyati va adabiy tanqid. Bir guruh shoirlar (Evg. Evtushenka, And. Voznesenkiy, Bella Axmadullina, R.Rojdestvenskiy, E.Vohidov, A.Oripov, G.Nurillaeva, Oljas Sulaymonov) ijodida modern qarashlarning shakllanishi va ularga tanqidchilikning munosabati. Lirikadagi izlanishlarning tanqidchilikda aks etishi. O.Sharafiddinovning "Nihollar" maqolasi. M.Qo'shjonovning Oybek romanlari haqidagi maqolalari. N.Shukurovning she'riyat talqiniga qo'shgan hissi.

Prozada lirizm, etnik ko'lam tahliliga e'tiborning kuchayishi. A.Muxtor, P.Qodirov, O.Yoqubov, O'.Umarbekov asarlarining talqini asosida o'zbek tanqidchiligida yangi tamoyillarning ko'rinishi. o'zbek nasrining qahramoni haqidagi bahs. Tanqidchilik markazida davr va qahramon muammosi.

Tanqidchilikda sharoit va xarakter muammosiga yangicha yondashuvlar. Badiiy asar poetikasi, xarakter, syujet, kompozitsiya, badiiy til va h.k. haqidagi tadqiqotlar.

Dramatik asar va uning sahna talqinida konflikt haqqoniyati va hayotiyliigi masalalarining o'rganilishi.

yillar o'zbek dramalaridagi qahramon muammosi B.Imomov talqinida. Ichki konflikt va tashqi konflikt haqidagi B.Imomov qarashlari.

Hafiz Abdusamatov (1925)- o'zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligining taniqli vakili sifatida. A.Qahhor ijodining o'rganilishi. Xamza nomidagi (Hozirgi O'zbekiston milliy) akademik drama teatrida so'nggi yarim asr davomida sahnalashtirilgan asarlar H.Abdusamatov talqinida. H.Abdusamatov H.H.Niyoziy va Komil Yashin ijodining yirik tadqiqotchisi. Olimning drama nazariyasi va O'zbekiston Qahramoni Zikr Muhammadjonov ijodi haqidagi tadqiqotlari. Munaqqidning O'lmas Umarbekov va Alp Jamol ijodiga bag'ishlangan yangi asarlari.

Tanqidchilikda milliy adabiyotlar aro hamkorlik va aloqalar masalasining ishlanishi.

O'zbek tanqidchiligida "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Qutluq qon" singari asarlarning qayta talqin qilinishi. Etuk asarlarning har bir zamonda yangicha o'qilishi va yangi talqinlari topilishi. Navoiy asarlarining zamon va adabiy jarayon bilan bog'lab yangicha talqin etilishi.

Kommunistik partiyaning sotsrealizmni yanada mustahkamlash, yagona sovet adabiyoti asoslarini zo'raytirish yo'lidagi sa'yi-harakatlari. KPSS MK "Adabiy tanqid haqida" (1972,19 yanvar) qarori. "Literaturnoe obozrenie" jurnalining chop etilishi, munaqqid kadrlarni tayyorlash ishlarining kuchayishi.

Tanqidchilikda sotsrealizm metodiga madhiya o'qishning asta-sekin susaya borishi undagi sun'iylik, soxtalik, hayotiylik va haqqoniylikdan uzoqlik ochiq-oydin aytila boshlashi. Rus adabiyotida xorij va ichkaridagi adabiyot tarzidagi bo'linish ro'y berishi.

O.Sharafiddinovning "Zamon, qalb, poeziya", M.Qo'shjonovning "Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati", "Oybek mahorati", S.Mamajonovning Zulfiya haqidagi, U.Normatovning Abdulla Qahhor ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlarida, maqolalarida, avvalgi davrlardagidan farqli o'laroq, endi mavzuga, qahramonning partiyaviy mansubligiga, ishchi yoki dehqon hayoti tasvirlanganiga qarab emas,



yozuvchi mahoratiga, uslub tiniqligiga, asarning badiiy tarovatiga qarab baho berish tamoyillarining kuchaygani.

Shuhratning “Jannat qidirganlar”, Turg’un Po’latning “Ichkuyov”, O.Yoqubovning “Diyonat”, P.Qodirovning “Olmos kamar”, O’.Hoshimovning “Nur borki soya bor” romanlarini qiyosiy, tipologik, funtsional tahlil etish asosida o’zbek tanqidchiligida uslubiy rang-baranglikning namoyon bo’lishi. Tanqidchi uslubidagi milliy o’ziga xosliklar.

“Mirzo Ulug’bek”, “Ulug’bek xazinasi”, “Yulduzli tunlar” singari tarixiy romanlar, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Halima Xudoyberdieva she’riyati tahlili misolida o’zbek tanqidchiligida shakllar va janrlar rang-barangligi.

Oshkoralik yillaridagi o’zbek tanqidchiligi. Badiiy adabiyotda paydo bo’la boshlagan yangi tamoyillarga vobosta tanqidiy tafakkurdagi meyorlar yangilanishi.

Sh.Xolmurzaevning nasridagi yangi tamoyillarning tanqidchilikdagi yangi talqinlari. O’.Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, “Ikki eshik orasi”, “Qalbinga quloq sol” asarlari bilan o’zbek adabiyotiga kirib kelgan yangiliklarning (xususan, sotsialistik hayotdagi salbiy tomonlarning yoritilib berilishi) tanqidchilik tomonidan aniq va to’g’ri baholanib ommalashtirilishi. M.Muhammad Do’sst, X.Sultonov, E.A’zam, U.Azim, Sh.Rahmonning adabiyotga olib kirgan yangiliklarining tanqidchilikda talqin qilinishi. Tanqidchilikning doim badiiy asar orqasidan ergashib bormay, yozuvchi, asar oldiga zamonning yangi-yangi badiiy talablarni qo’yish xususiyati.

O’zbek tanqidchiligida “O’zbeklar ishi”, rahbarlar adabiyoti muammolariga munosabat. V.Zohidov, S.Mirvaliev, N.Vladimirova O.Tog’ae, I.G’afurov, P.Shermuhamedov, N.Xudoyberganov hayoti va ijodi haqida ma’lumot.

60-80-yillar tanqidchiligida Cho’lpon, Fitrat ijodlarini o’rganish bo’yicha olib borilgan kurashlar. Madaniy merosga yangicha qarashlar.

A.Qodiriy ijodining 60-80-yillar tanqidchiligida o’rganilishi. A.Aliev, I.Mirzaev, F.Nasriddinovning qodiriyshunoslik faoliyati.

Xamza ijodiga munosabatda yangicha meyorlarning yuzaga kelishi.

Mustaqil o’qish uchun adabiyotlar:

- 1.Qo'shjonov M. "Ijod mas'uliyati", -T.: Fan, 1981 yil
- 2.Sharafiddinov O. "Birinchi mo'jiza", -T.: FG'ACH, 1979 yil
- 3.Xudoyberganov N. "O'z dunyosi, o'z qiyofasi", -T.: "Yosh gvardiya", 1986 yil
- 4.Xudoyberganov N. "Xahiqat yog'dulari", -T.: G'FACH, 1985 yil
- 5.Mamajonov S. Saylanma. -T.: FG'ASN, 1981 yil

**16-mavzu: Adabiy tanqidda umumbashariy mezon va meyorlarning shakllanishi. (Mustaqillikdan keyingi o'zbek tanqidchiligi)**

Reja.

- 1.So'nggi davr adabiyotidagi ijodiy izlanishlar va adabiy tanqid.
- 2.Adabiy tanqidda XX asr o'zbek adabiyotini qayta baholash muammolari.
- 3.Adabiy tanqidda modernizm muammolariga oid baxs-munozaralar va turlicha yondashuv.

Tayanch tushunchalar: qayta baholash, yangicha ilmiy-estetik tafakkur, modernizm, absurd, etakchi tamoyillar, ijodiy izlanishlar, tarixiybiografik yondashuv, tarixiy-funksional yondashuv, aksiologik yondashuv, germeneytika, talqin, sharx.

Sotsialistik realizm metod haqidagi nazariy qarashlarning inqirozi. Tanqidchilik metodologiyasida yangilanishlar. "Boy ila xizmatchi", "Yo'lchi yulduz", "Jangchi Tursun", "Ko'kan", "Jontemir", "Zaynab va Omon" singari asarlarga xolis yondashuv. "Sarob" romani haqidagi bahs. Xamza, A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitratlarning yangicha talqini, baholanishi.

Badiiy asarni baholashda mafkuraviylik, sinfiylik, partiyaviylik, soxta xalqchilik printsiplaridan voz kechilishi.

Tanqidchilik uchun metodologik asos bo'lib kelgan markscha-lenincha ta'limotga oid printsiplar o'rnini umumbashariy xolis meyorlar egallay boshlashi. Bu meyorlarning o'z qadriyatlarimiz asosidagi milliy mezonlar bilan boyitilishi. Qur'on motivlari, hadis talqinlari zamiridagi hamda Amir Temur shaxsi yoritilgan, o'tmishimiz, tariximizni badiiy aks ettirgan asarlarga munosabatda o'zbek

tanqidchiligi bashariy meyorlar bilan bir qatorda o'zining mustaqil mezonlarini ham o'rta qo'yishi.

Mustaqillik davri o'zbek tanqidchiligining istiqbol g'oyalariga esh ekanligi.

Badiiy asarga biografik, tarixiy-funksional, ontologik, genetik yondashuvning kuchayishi. Biografik metodning tanqidchilikda keng qo'llanilishi.

Germenevtik, izoh, sharh, talqin haqidagi yangicha qarashlar.

Aksiologiya-baholash nazariyasi. A.Qodiriy, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Zulfiya asarlarining yangi tahlillari.

Badiiy asarni talqin qilish, baholashda sub'ektivlik muammosi.

Tanqidchilikda ijtimoiy tahlil qatori mikroanaliz, qiyosiy-tarixiy talqinning kuchayib borayotganligi.

O'zbek adabiyoti va tanqidchiligiga ilg'or jahon adabiyoti va tanqidchiligi ta'siri kuchayganligi. Badiiy adabiyotga Kafka, Kamyu; tanqidchilikka Baxtin, Ortegalar ta'siri. Badiiy adabiyot hayotni realistik aks ettirib qo'ya qolmay ongda oqimni mukammal aks ettirishga intilishini, badiiy qahramon obrazini ochishda o'ziga xos izlanishlar paydo bo'layotganini adabiy tanqid ham mutanosib idrok etayotgani. Bu boradagi bahslar. Modrenizm, absurdizm, avangardizm, neorealizm, postmodrenizm, strukturalizm, ekzistentsializm, singari oqim va tushunchalarga adabiy tanqid munosabati. Adabiy asarni anglash qonuniyatlari retseptiv estetika haqida o'zbek tanqidchiligidagi fikrlar. Yangi zamondagi yozuvchi, kitobxon, jamiyat aro uzviy uchlik bog'lanishi muammolari yangi o'zbek tanqidchiligi talqinida. "Anglashning azobli yo'li" (Q.Yo'ldoshev) singari maqolalardagi o'zbek tanqidchiligining sifat o'zgarishlari. Adabiy tanqid matnni o'qish, uqish mashaqqatlari haqida. O'zbek adabiyotida paydo bo'lgan modern asarlar haqidagi maqola, sharh, taqrizlar. X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, Faxriyor, B.Ro'zimhammad, P.Qodirov, B.Sarimsoqov, U.Normatov maqolalari.

Dilmurod Quronov-O'zbek tanqidchiligining yangi avlodi namoyandasi.

Ulug'bek Hamdamovning modern she'riyat haqidagi maqolalari.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1.Rasulov A. "Tanqid. Talqin. Baholash" -T.: "Fan" 2006

2.Karimov B "Abdulla Qodiriy" -T.: "Fan", 2006

3.Rahmonov B. "O'zbek adabiy tanqidchiligi", -T.: "Yangi avlod", 2004 yil

### **17-mavzu: Tanqid va adabiy jarayon**

Adabiy tanqid va badiiy adabiyot. Tanqidning adabiy jarayondagi o'rni va roli. Adabiy jarayonning murakkab, harakatchanligi. Unda yangi tamoyil, mezon, meyor, qoidalarining paydo bo'lishi. Adabiy jarayonning milliy zamin miqyosida va umumjahon adabiy-madaniy hayot kengligida tushunilishi.

So'nggi 15 yil ichida o'zbek adabiy jarayonida ro'y berayotgan o'zgarishlar. O'zbek tanqidchiligida poetika, asarning estetik ta'siri, talqini baholanishida paydo bo'layotgan yangi mezonlar va tamoyillar.

Umumjahon adabiy hayotidagi jarayonlar, xususan modern, avangard, syurrealizm, poststrukturalizm singari oqim, yo'nalishlarga o'zbek adabiy jarayoni munosabati. An'ana va yangilik mujdalari.

"... Yangilik paydo bo'lishi bilanoq avval "yangi" maqomida yurgan qadriyat qisman eskilikka aylana boradi. Ana o'sha mahalda "eski yangilik"ning ashaddiy tarafdorlari "yangi yangilikka" qarshi kurashga o'tlanadilar. Hattoki, bu yo'lda quyushhondan chiqish holatlari bo'rtib ko'zga tashlanadi, "yangi yangilik" o'sha chig'iriqlardan o'tsagina adabiyot maydonida yashab qolish huquqini qo'lga kiritadi" (B.Ro'zimuhammad) O'zbek adabiyotshunosligi, tanqidchiligidagi "eski yangilik" bilan "yangi yangilik" aro kurashi.

Hozirgi tanqidchilikda germeneytika-talqin, tafsir, izoh, sharh, ta'vilning keng qo'llanilayotganligi. Talqin yo'llari, usullari.

Badiiy asarga biografik, tarixiy-funksional, tarixiy-tipologik, ontologik yondashuv.

O'zbek adabiy tanqidchiligida yangi oqimlar...bormi?

Adabiy tanqid janrlarining adabiy jarayonga, ijodkor hayoti va ijodiga hamda bevosita badiiy asar tahliliga yo'naltirilganligi.

Adabiy-tanqidiy sharh, tanqidiy ocherk, xronologik tadqiqot janrlarining milliy adabiyotni baholashdagi o'rni. Taqriz, ocherk, ochiq xat, asar qahramonlariga

maktub, suhbat, maqola, adabiy portret, umumlashma obzor maqola janrlarining ham ijodiy jarayonni, ham aniq asarning o'rganishiga yo'naltirilganligi.

Xotira, badia janrlarining vazifasi, yo'nalishi, mohiyati.

## XULOSA

Yangi o'zbek adabiy tanqidchiligi o'z taraqqiyot takomilida murakkab tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Bir asrdan ziyodroq davrni qamrab oluvchi yangi o'zbek adabiy tanqidchiligidan shakllanish va taraqqiy etishi, metodologik asoslari va etakchi tamoyillarining qaror topa borishi hamda yangicha kontsepsiya va tafakkur tarzining namoyon bo'lishida ko'plab ichki va tashqi omillar muhim rol o'ynadi. Ichki omil sifatida adabiy tanqidning o'ziga xos tabiati, rivojlanish qonuniyatlari, munaqqid "Men"i, uning dunyoqarashi, tafakkur tarzi, iste'dodi, intiutsiyasi va hokozalar xarakterlidir. Tashqi omillar sifatida esa ijtimoiy va adabiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlar muhim ahamiyatga egadir.

Adabiy hayot mazmunan keng tushuncha. U butun Sharq G'arb madaniy merosi va jahon madaniyatining eng qadimgi namunalaridan tortib bugungi adabiy jarayonda yaratilayotgan badiiy, ilmiy-nazariy, adabiy-tanqidiy asarlarining barchasini qamrab oluvchi omildir.

Farobiy, Beruniy, ibn Sino, imom G'azzoliy, az-Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Bobur kabi ko'plab allomalarimiz qoldirgan boy adabiy meros, mumtoz adabiyotshunoslik va adabiy tanqid durdonalari, xususan "ilmi naqada", ilmi g'ariba", "ilmi adab"ga oid ilmiy manbalar yangi o'zbek adabiy tanqidchiligi tafakkur tarzining, shuningdek tahlil usullarining kamol topishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Adabiy tanqid metodologiyasi va ilmiy- nazariy asoslarining qaror topishida adabiy hayotning muhim qismini tashkil etuvchi jahon madaniyati tarixidagi eng ilg'or falsafiy, ilmiy-nazariy va badiiy-estetik qarashlar, eng avvalo Aristotel, Platon, Kant, Gegel, Z. Freyd, K.Yung, E. Fromm, V.G.Belinskiy kabi mutafakkirlarning kontseptual nazariyalari katta rol o'ynadi. Bu hol ayniqsa adabiy tanqid tarixining keyingi davrida yaqqolroq namoyon bo'lmoqda.

O'tgan asrning 80-90-yillaridan boshlab ham ijtimoiy hayotda, ham adabiy hayotda yuz bera boshlagan sifat o'zgarishlar yangi o'zbek adabiy tanqidining jahon adabiy-badiiy tafakkuridagi ilg'or qarashlaridan baxramand bo'la boshlashiga olib keldi. Bu hol so'nggi paytlarda dialektika barcha fanlarning umumiy metodologiyasidir, degan qarashlarni shubha ostiga qo'ymoqda. Natijada adabiy tanqidda badiiy asarga har tomonlama, dialektik qonuniyatlar bilan bir qatorda, germenevtik va sinergetik yondashuv izchil tus ola boshladi. Badiiy asarga har tomonlama- ontologik, gneseologik va aksiologik ta'limotlar asosida yondashish, tahlilning turli-tuman usullaridan samarali foydalanish adabiy tanqidda metodologik plyuralizmga o'tilayotganligidan dalolat bermoqda. Shu bois mazkur qo'llanmani yaratishda metodologik plyuralizm tamoyillariga amal qilindi.

Bu hol yangi o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixini davrlarga ajratish va har bir davrning o'ziga xos etakchi tamoyillarini aniqlash, shuningdek, qo'llanmadan o'rin olgan namoyandalarning adabiy-estetik printsiplarini belgilashda ham muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Adabiy tanqidning sho'ro davri faoliyati, uning yutuq va nuqsonlariga tarixiylik tamoyili asosida tanqidiy yondashildi, istiqlol davri ijtimoiy va adabiy muhitiga esa o'tish davriga xos izlanishlar maxsuli sifatida qaraldi.